O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
SAN’ATSHUNOSLIK FAKULTETI
«TASVIRIY SAN’AT VA MUXANDISLIK GRAFIKASI» KAFEDRASI

*“Xiva tarixiy obidalarni tarixiy voqelikda tasvirlash”*

mavzusidagi

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: *Kunduzgi bo’lim bitiruvchisi*
4 kurs talabasi
***Xalimova Muxabbat***

***Ilmiy rahbar:***
*katta o’qituvchi S. S.Azimov*

________________________

Bitiruv malakasi ishi kafedradan dastlabki himoyadan o’tdi.
____________sonli bayonnomasi «_____» ___________________ 20.. yil

**BUXORO – 2020 yil**

**Kirish.**

**O’zbekistonda rang tasvirning rivojlanish tarixi**……………...3-10 bet

**I bob. Tasviriy san'atning tarbiyaviy ahamiyati.**

1.1 Tasviriy san’atda rang tasvirining o’rni va ahamiyati…………11-14 **bet**

1.2§.Xiva me’morchilik san’ati ……………………………..……15-25.**bet**

**II bob. “Manzara” janrida kompozitsiya ishlashning tasviriy san’atda tutgan o‘rni**

2.1§.Komozitsiyaning asosiy qonun va qoidalari............................25-33. bet

2.2§. Manzara janrida ijod etgan rassomlar...................................33-36. bet

**III bob. "** ***Xiva tarixiy obidalarni tarixiy voqelikda tasvirlash*** **" mavzusida kartina bajarish**

3.1§.Kartina bajarishda asosiy rang munosabatlarni idrok qilish va tasvirlash**…………………………………………………………….**…37-42.**bet**

3. 2§. Iliq va sovuq ranglar hamda ularning qo’llanilishi…………..43-47.**bet**

3.3. §. Manzara janrida kompozitsiyasining yaratilishi …..............48-51.bet

3.4. §. Manzarani akvarelda tasvirlash texnologiyasi………………52-62.**bet**

**IV.Xulosa ....................................... bet**

**V.Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati........... bet**

**VI.Ilovalar..................................... bet**

**Kirish.**

**O’zbekistonda rang tasvirning rivojlanish tarixi**

O'zbekiston Respublikasining istiqlolga erishishi xalqimizning tarixiy qadriyatlari, ma'naviy merosi xalq an'analarini qayta tiklashga va ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirishga katta yo'l ochib berdi. Ayniqsa, asriy an'analarga ega bo'lgan tasviriy san'at turlariga o'quvchi yoshlarni jalb etish katta tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan diqqatga sazovordir. Ta’lim sohasida mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar ta’limni yanada rivojlantirish, uning darajasini zamonaviy bosqichga ko’tarishdan iborat. Bu borada tasviriy san’atning o’rni ham benihoyat kattadir. Zero, yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularda estetik didni shakllantirish bevosita tasviriy san’at ta’limining ham asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Tasviriy san’at asarlari kishilarning his-tuyg’ulariga kuchli ta’sir ko’rsatish imkoniyatiga egadir. Ayniqsa, manzara asarlarini tomosha qilish bilan insonlar, unda tasvir etilgan go’zallikni ko’rib, qalblariga go’zallik kirib boradi, tabiatga mehr-muhabbati ortadi.

**Mavzuning dolzarbligi.** Ijtimoiy ong shakllaridan biri - san’at-tabiat va jamiyatda bo‘lgan, bo‘layotgan va bo‘ladigan voqea-hodisalarni badiiy tasvirlarda ifodalanishidir. Tasviriy san’at o‘zida moddiy olamning umumiy holatini va rivojlanishini aks ettirib, odamlarga uni bildiririshda muhim vosita bo‘ladi va ularni siyosiy, ahloqiy va badiiy jihatdan tarbiyalashning qudratli omili bo‘lib xizmat qiladi. San’at voqelikning o‘zida ifodalash uslubi va xarakteri, mazmuniga ko‘ra tasviriy san’at, me’morchilik, adabiyot, musiqa, sirk, teatr, kino, radio-televideniya kabi turlarga bo‘linadi.

Tasviriy san’atda manzara janrida san’at asari yaratishning eng ijobiy va muhim xususiyati shundaki, u fandan farqli o‘laroq voqea va hodisalarni tushunchalarda emas, balki sezgi va his bilan idrok qilinadigan shakllarda, tipik-badiiy obrazlarda ifodalaydi.

O‘zbekiston tasviriy san’atining tarixi, qadriyatlari, ilm-fan, madaniyat durdonalarini, har tomonlama ilmiy va ijodiy o‘rganish va tahlil etish g‘oyat

muhimdir. ”Bugun bizning oldimizga shunday tarixiy imkoniyat paydo bo‘ldiki, - degan edi prezidentimiz I.A.Karimov, - biz bosib o‘tgan yo‘limizni tanqidiy baholab, ilmiy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz tomirlariga qaytib, o‘tmishdagi boy an’analarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmoqimiz kerak.”[1] Shu maqsadda Respublikamiz hukumatining qator hujjatlari Vatanimizning har tomonlama jahon andozalari asosida rivojlantirishga qaratilmoqda. Jumladan, yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda madaniyatimiz, umuminsoniy qadriyatlarimiz, milliy san’atimiz namunalaridan, ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo‘lgan ajoyib san’at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. San’at, xususan tasviriy san’at istiqlol davrida mafko‘raviy - g‘oyaviy, ma’naviy olamning tarkibiy qismi sifatida u millat hayotidagi siyosiy va ijtimoiy – iqtisodiy o‘zgarishlarga plakat kabi tashviqot - targ‘ibot vositalariga o‘xshab tezkorlik bilan javob bera oladigan ijodiy targ‘ibotlaridan kelib chiqqan holda davom etmoqda.

Ko‘p asrlik tarixga ega O‘zbekiston tasviriy san’atida manzara janrida yaratilgan san’at asarlari murakkab va serqirra badiiy obrazli tizimdir.

Boshqa tasviriy san’at turlari kabi manzara janri ham doimiy rivojlanishda. Ushbu janrning psixologik xususiyatlari haqida ilmiy tadqiqotlar olib borilib, tasviriy san’at tarixini kundan-kunga yangi ma’lumotlar bilan boyitmoqda.

Yuqoridagi fikrlarni muxtasarlab quyidagilarni ta’kidlash joiz.

Milliy istiqlol tufayli O‘zbekiston xalqi o‘zini milliy ma’naviy-madaniy yangilanishida o‘ziga xos yo‘lni tanladi va bu jarayon yurtboshimiz I.A.Karimov rahnomoligida bosqichma-bosqich davom etmoqda. Shunday ezgu maqsadlarni amalga oshirish mamlakatimizda demokratik tamoyillarga asosolangan jamiyatni barpo etish, yurt taraqqiyotini ta’minlash, yoshlar qalbiga va ongiga milliy istiqlol mafko‘rasini shakllantirishni taqozo etmoqda.

Shunday ekan, har bir jamiyatning ijodkor qatlami o‘zining o‘rinbosarlari bo‘lgan yosh avlodning kelajagi uchun qayg‘urishi va g‘amxo‘rlik qilishi zarurdir.

---

Ajdodlarimiz yaratgan buyuk san'at asarlari, madaniy-ma'rifiy boyliklar xalqimiz, ayniqsa yosh avlod uchun katta tarbiya maktabi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Shu nuqtai- nazardan ushbu bitiruv malakaviy ishida tasviriy san'at asarlarida "*Xiva tarixiy obidalarni tarixiy voqelikda tasvirlash*" mavzusida kompozitsiya ishlashni keng miqyosda o'rganib, ta'lim jarayonlarining yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan o'quv mashg'ulotlarida o'quvchi – o'quvchilarni ushbu janrda asar yaratish orqali tabiatni, ekologiyani, shuningdek, atrof-olamimizni o'rab turgan jamiki tabiat unsurlarini asrab-avaylash bilan birga ulardan bahra olish san'atiga ega bo'lishni taklif qilinadi.

Har qanday jamiyatda bo'lganidek, respublikamizning taraqqiyotida bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatga bardosh beraoladigan malakali mutaxassislarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Zero jamiyat taraqqiyotida mutaxassis kadrlar omilining muhimligi isbot talab etmaydigan hayotiy haqiqatdir. Mutaxassis kadrlar tayyorlash, uning kasbiy sifat va samaradorligini oshirish borasida ham so'nggi yillarda keng ko'lamli ishlar qilindi va qilinmoqda. Jumladan, tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning mustaqilligi, ijodkorligi, tadbirkorligi, faolligi kabi xislatlarni tarkib topdirishga alohida e'tibor berilmoqda. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida ta'kidlanga-nidek,"…o'qishni***, mustaqil bilim olishni*** individuallashtirish hamda distanstion ta'lim tizimi texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqish va o'zlashtirish"[2] talab etiladi.

Binobarin, oliy ta'lim tizimida bo'lajak pedagoglarning grafikaviy tayyorgarligini mustaqil ta'lim olish faoliyatini faollashtirish asosida takomillashtirish tadqiqotimizning muammosini belgiladi va mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

Bu yechimini kutayotgan muammolarni hisobga olgan holda, shuningdek fan va texnika taraqqiyotining hozirgi rivoji, zamonaviy ishlab chiqarish darajasi, oliy texnik ta'lim tizimida me'mor mutaxassislarni tayyorlashdagi

---

[2] Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури. / Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. -Тошкент, 1997. – Б. 31-61.

kamchiliklardan kelib chiqib, mustaqil ta'limni faollashtirish asosida grafikaviy tayyorgarligini takomillashtirish zarur.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Ma'lumki, o'zbek xalqi qadimdan boy tarixga ega bo'lib, uni Xiva, Buxoro, Samarqand, Qo'qon, Toshkent, Shahrisabz kabi ko'pgina shaharlarning qadimiy yodgorliklarida ko'rish mumkin. Ushbu yodgorliklarning rang-barangligi, yuksak badiiy saviyasi, falsafiy va ma'naviy mazmuni bilan birga bir necha asrlar davomida butun dunyo ahlini o'ziga rom qilib kelmoqda.

Shaxs tarbiyasi va uning ma'naviy jihatdan boy tarzda ta'lim olishiga oid masalalar kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida olimu-fuzalolar, mutafakkirlar, psixologlar, faylasuf va pedagog olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan.

Qomusiy allomalar – Abu Nasr Forobiy, Muhammad Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Axmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalarning komil inson tarbiyasi va uning mohiyati haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Tadqiqot yuzasidan olib borilgan izlanishlar, ilmiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil etishdan shunday xulosaga keldikki, mazkur muammoni nazariy va amaliy jihatlari O'zbekiston Respublikasi va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi miqyosida so'nggi yillarda bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish masalalari respublikamizda A.A.Abduqodirov, J.G'.Yo'ldoshev, N.Sayidaxmedov, F.R.Yuzlikaev, J.Tolipova, N.A.Muslimov, Sh.E.Qurbonov, O'.Q.Tolipovlarning ilmiy ishlarida ko'rib chiqilgan. Ularning ishlarida oliy ta'lim muassasalari o'qituvchisini metodik tayyorlash tizimini rivojlantirish tamoyillarini aniqlash, oliy pedagogik ta'limda o'qituvchini metodik tayyorlashning turli modellarini ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan masalalar tadqiq etilgan.

Tasviriy san'atni darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'qitish metodikasi Hamdo'stlik mamlakatlari va O'zbekiston olimlaridan V.Kuzin,

N.Rostovstev, O.Arutyunyan, V.Strokov, B.Baymetov, J.Darmenov, R.Hasanov, Q.Qosimov, N.Tolipov, A.Amanullaevlarning ilmiy ishlarida bayon etilgan.

Tasviriy san'atni yoshlarga o'rgatish masalalari O'zbekiston mustaqillikka erishgach, mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimining joriy etilishi, oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, o'rta umumta'lim maktablarida o'qitilishi bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. O'zbek olimlaridan A.Amanullaev, S.Abdullaev, X.Alyaminov, B.Azimov, B.Baymetov, S.Bulatov, J.Darmenov, B.Oripov, A.Sulaymonov, N.Tolipov, O.Xudoyorova, Q.Qosimov, R.Hasanov va boshqalar tomonidan tasviriy va amaliy san'atni o'qitish metodikasiga oid ahamiyatga molik ilmiy tadqiqot ishlari bajarilgan. Mazkur tadqiqotlarda shaxsni tasviriy san'at me'morchilik namunalari asosida badiiy-estetik tarbiyalash, uning kasbiy mahoratini o'stirishda shaxs rivojlanishining ichki ehtiyojlari, psixologik xususiyatlarini inobatga olish, zamon talablari asosida ta'lim-tarbiya berishda yoshlarga o'tmish madaniy meros namunalaridan foydalanishning pedagogik asoslari e'tirof etiladi.

**Ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni amalga oshirish jarayonida ta'lim tizimi va yuqori malakali kadrlar tayyorlashni isloh qilish, rivojlantirish muammolari, Davlat ilmiy-texnik dasturining "Yosh avlodni tarixiy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ta'lim va tarbiya tizimini rivojlantirish bo'yicha bajarilgan.

**Tadqiqot maqsadi:** oliy ta'lim tizimida tarixiy obidalardan Tasviriy san'at fanini o'qitishda foydalanish, ta'lim mazmunini modernizastiyalash va mustaqil ta'lim olish faoliyatini faollashtirish asosida takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish.

**Tadqiqot vazifalari:**

Mavzuning maqsad va vazifalari yuqorida keltirilgan rassomchilikning ijodiy jarayonidagi davriy bosqichlarni o'rganib, bugungi kunga qadar rivojlanish jarayonini tadqiq etishini oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Tasviriy san'at o'zining funktsional vazifasidan kelib chiqqan holda, birinchi bo'lib jamiyatdagi o'zgarishlarga nisbatan o'z munosabatini bildiradi. Tasviriy san'at va madaniyatning buyuk asarlari va tog' manzarasida ishlangan kompozitsiyaga bag'ishlangan qator tasviriy san'at asarlari muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, milliy g'oya va mafko'raning shakllanish jarayonida tabiatga mehr uyg'otuvchi san'at sohasiga aylandi.

Mavzuni yoritishda asos qilib olingan tog' manzarasi kompozitsiyasini ishlash keng qamrovda batafsil o'rganilishi va ilmiy adabiyotlarga yanada ko'proq kirgizilishi kabi masalalar ilm-fan oldidagi qator vazifalardan biridir. -"Yozgi etyud" mavzusida ishlangan kompozitsiya misolida manzara janrida kompozitsiya ishlashni pedagogik zaruriyat sifatida o'rganish;

- "*Xiva tarixiy obidalarni tarixiy voqelikda tasvirlash*" mavzusida kompozitsiya ishlashda buyuk rassomlar ijodiy merosidan foydalanishga erishish;

-" "*Xiva tarixiy obidalarni tarixiy voqelikda tasvirlash*" mavzusida ishlangan kompozitsiya orqali o'zbek millatiga xos milliy urf-odat va an'analarning tutgan o'rnini va ahamiyatini ko'rsatish;

-" *Xiva tarixiy obidalarni tarixiy voqelikda tasvirlash*" mavzusida ishlangan kompozitsiyani dars jarayonlarida o'rgatishda yangi pedagogik texnologiyaning samarali usullari va vositalaridan foydalanish.

**Tadqiqot ob'ekti.** Oliy ta'lim tizimida "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalariga ta'lim berish tizimi.

**Tadqiqot predmeti.** Talabalarning tasviriy san'at o'qitish tizimida ta'lim mazmuni va texnologiyasi.

**Tadqiqotning ilmiy farazi.** Oliy ta'lim tizimida tasviriy san'at ta'lim jarayonining sifatini oshirish mumkin, agar:

- talabalarning o'quv-amaliy faoliyati mazmuni zamonaviy ishlab chiqarishda me'moriy orbidalar ijodiy - ish faoliyati mazmuni asosida qurilsa;

**Tadqiqot metodlari**:

- *kuzatuv* – oliy ta'lim jarayonida talabalarni amaliy tayyorgarlik va mustaqil ta'lim olish faoliyatining holatini o'rganishda;

- *nazariy tahlil* - zamonaviy ishlab chiqarishda talabalarning ijodiy-ish faoliyati o'rganish, ilmiy tadqiqot muammosi bo'yicha umumpedagogik, psixologik va uslubiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilishda qo'llanildi;

- *so'rovnoma va test o'tkazish* - talabalarning mustaqil ta'lim olishga munosabati, uni tashkil etishning mavjud holati hamda o'quv ishi natijalari va ta'lim oluvchilarning amaliy faoliyatini o'rganishda foydalanildi;

**Tadqiqotning metodologik asosi.** O'zbekiston Respublikasining Konstitustiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" va "Oliy texnik ta'limni takomillashtirish Konstepstiyasi" tashkil etadi. Shuningdek, psixologiya va pedagogikaning shaxs ijodkorlik faoliyatining mohiyati, shakllanishi va rivojlanish qonuniyatlari haqidagi qoidalar va oliy ta'lim pedagogikasining zamonaviy nazariyasi tashkil etadi.

**Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar**:

1.Markaziy Osiyo xududidagi tarixiy yodgorliklarning tahlil qilish

2.Xiva me'morchiligini o'rganish

3.Markaziy Osiyo me'morchilik obidalarini tasviriy san'atda aks ettirilishi

4. Xiva tarixiy obidalari

**Ilmiy yangiligi:**

1.Markaziy Osiyo xududidagi tarixiy yodgorliklarning tahlil qilindi
2.Xiva me'morchiligini o'rganildi
3.Markaziy Osiyo me'morchilik obidalarini tasviriy san'atda aks ettirilishi
4. Xiva tarixiy obidalarni tarixiy voqelikda tasvirlashda amaliy foydalanish usullarini ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan nazariy xulosalardan oliy ta'limi tizimida talabalarni amaliy tayyorgarlik mazmunini modernizastiyalashda, ularning mustaqil ta'lim olish faoli-

yatini tashkil etish va samaradorlashtirishda foydalanish mumkin. Shuningdek, ishlab chiqilgan amaliy-uslubiy materiallardan tasviriy san’at bo’yicha talabalarda mustaqil ta’lim olish ko’nikmalarini shakllantirishda qo’llash mumkin.

**I-Bob.**

## Tasviriy san'atning tarbiyaviy ahamiyati.

### 1.1 Tasviriy san’atda rang tasvirining o’rni va ahamiyati

Tasviriy san'at juda qadim zamonlarda, mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo'ldi. Mehnat jarayonida inson tafakkuri kamol topdi, go'zallik hissi ortdi, voqelikdagi go'zallik, qulaylik va foydalilik tushunchalari kengaydi. Sinfiy jamiyat vujudga kelishi bilan esa ijtimoiy taraqqiyotda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi; aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqa boshladi. Bu esa fan va san'at rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Professional san'at va san'atkorlar shu davrda paydo bo'ldi. Tasviriy san'at esa o'ziga xos xususiyatini, sinfiyligini namoyon etib, hukmron sinfning ideologiyasini targ'ib etuvchi kuchli g'oyaviy qurolga aylandi. Lekin shunga qaramay, omma orasidan yetishib chiqqan iste'dodli ijodkorlar mehnatkash xalq ommasining orzu-istaklarini, ularning go'zallik va xudbinlik, oliyjanoblik va insonparvarlik haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi asarlar yaratdilar. Xalqning turmushi, xulq va odatlari, yutuq va mag'lubiyatlari ularning asarlarida o'z ifodasini topdi. Har bir davrda mavjud bo'lgan ana shunday san'at hayot go'zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarni kamol toptirdi,ularni tenglik, ozodlik, birodarlik, yorqin kelajakka intilishga da'vat etdi. Haqiqatdan ham insoniyat yaratib qoldirgan madaniy qadriyatlar oddiy boyliklar bo'lib qolmay, balki o'zida inson aql-zakovati, hayot to'g'risidagi fikr-o'ylarini aks ettiruvchi ko'zgu hamdir. Jahon san'ati tarixini o'rgatish, uning taraqqiyot qonunlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish, o'tmish odamlarning his-tuyg'u, hayotiy tajribalarini o'rganish g'oyaviy-estetik qarashlarning shakllanishini bilish demakdir. Bu so'zsiz. Kishilarda hayotiy tajribalarning boyishiga, hayotga yanada keng va atroflicha yondoshishga yordam beradi. Tasviriy san'at turlariga rangtasvir, arxitektura, grafika, haykaltaroshlik kiradi.

Rangtasvir tasviriy san'atning eng muhim turlaridan bo'lib, maxsus polotnolarga, devorlarga ishlanadi. Tasviriy san'at asarlarida ifodalangan maqsad va mazmunni ochib berishda rang muhim o'rin egallaydi.

Rangtasvir asarlari xarakteriga ko'ra monumental, dekorativ, mo'jaz, dastgohli turlarga bo'linadi.

Monumental rangtasvir me'morchilik bilan bog'liq bo'lib, ular uylarning devorlarini, shiftlarini bezashda qo'llaniladi. Katta hajmda uzoqdan ko'rishga mo'ljallanganligi uchun bular yaxlitlashtirilgan holda ishlanadi, ranglar ham shartli ravishda olinadi. Mo'jaz san'at asarlari Turli mamlakatlarda, shu jum ladan, O'zbekiston hududida judahamqadim zamondan taraq qiy etib, qadimiy qo'lyozmalar ga ishlangan. Chunonchi. Alisher Navoiyning «Xamsa» asarlariga ishlangan rasmlar bunga misol bo'la oladi.

Dastgohli rangtasvir asarlari keng tarqalgan bo'lib, maxsus matolar, karton, yog'och, romkaga tortilgan mato-xolst va shu kabilarga ishlanadi.Dastgohli rangtasvir moybo'yoq.guash, suvbo'yoq, tempera bo'yoqlarida maxsus dastgoh (molbert) larga o'rnatilib ishlanadi.

Grafika – lotincha «grafo» so'zidan olingan bo'lib, «yozaman», «chizaman» degan ma'noni anglatadi. Tasviriy san'atning bu turiga oddiy va rangli qalamda ko'mir, pastel, sangina, suvbo'yoq,guash va tushda ishlangan bezaklar, turli plakatlar, hajviyrasmlar va hakozolar kiradi.

Haykaltaroshlik – tasviriy san'atturlaridan biri. U lotincha «skulpo»so'zidan olinib, qattiq materiallarga «qirqish, kesish, o'yish, taroshlash» orqali ishlov berish ma'nosini anglatadi.

**Tasviriy san'atning turlari.**

Portret – rangtasvir janrlariichida eng qadimiylaridan bo'lib, kishilarning tashqi va ichki kechinmalarini tasvir orqali ochib beradi.

Portret janrida ishlangan tasviriysan'at asarlari bizga musavvir Yashagan davrni,madaniyatini hamda tasvirdagi kishining ruhiyatini asarda talqin etadi.

Avtoportret – portret janrining ko'rinishlaridan biri bo'lib, musavvir o'zining tashqi qiyofasini o'zi tasvirlaydi.

Manzara – janrdagi asarlarda borliq, tabiatdagi ko'rinishlar haqqoniy aks ettiriladi. Manzarada faqatgina narsa va voqealar emas, balki musavvirning ichki kechinmalari ham ifodalanadi. Ayrim musavvirlar vodiylarni

tog'u-toshlarni tasvirlashga ishqiboz bo'lsalar, boshqalari dengiz manzarasini tasvirlashda mohirdirlar. Manzara janrida musavvirlardan O'. Tansiqboyevning «O'zbekistonda mart», «Jonajon o'lka», «Mening qo'shig'im», N. Kashinaning «Tog'da bahor», Z. Inog'omovning «Arpa o'rimi», «Choyga», R. Temurovning «Bibixonimda bahor», «Ulug'bek madrasasi» asarlari mualliflarga shuhrat keltirdi.

Natyurmort – fransuzcha so'z bo'lib,«jonsiz tabiat» degan ma'noni anglatadi. Bu janrda musavvir asosaninsonni o'rab turgan atrof muhitdaginarsalar,turmushdaqo'llanadiganbuyumlar, oziq- ovqat mahsulotlari, gullar, meva va boshqalarni tasvirlaydi. U o'z asarida tevarak-atrofdagi narsalarni tasvirlash orqali uningxarakterlixususiyatlarini,voqeaqaysi davrda ro'y berayotganliginiham ko'rsata oladi.

Tarixiy janrda ishlangan suratlar orqali biz uzoq o'tmishda bo'libo'tgan voqea-hodisalar, tarixiy shaxslar, xalqlarning turmush madaniyati bilan tanishamiz. Tarixiy janrning ko'rinishlaridan biri jang (botal) manzaralaridir.

Botal janr – «botal» fransuzcha so'z bo'lib, «jang», «urush» ma'nosini bildiradi. U jang manzaralarini o'zida aks ettiradi. Bu janrda jang va harbiy yurishlar manzarasi asosiy o'rinni egallaydi. Botalist – rassomlarning asarlarida jangchi obrazi, uning qahramonligi, mardligi jasorati hamda o'z ona Vataniga bo'lgan cheksiz muhabbati ifodalanadi. Leonardo da Vinchi, M.B.Grekov, G.K. Saviskiy, A.A.Deyneka, V.V.Volkov va boshqalar ana shunday musavvirlardandir.Animalistik – janr o'zgachatasviriy san'at turidir. Ulotincha «anima», «hayvonotolami» degan ma'noni bildiradi. Animalistik rassom hayvonot dunyosiga zo'r qiziqish, sevgi va mahorat bilan yondoshadi.

Hayvonot dunyosi ibtidoiy odamlar hayotida kata ahamiyatga ega bo'lgan. O'sha davrda ular g'orlarning devorlariga kiyik, qo'tos, mamontlarning suratlarini chizganlar. Qadimgi Yaponiya va Xitoyda hayvonlarning tasvirlari dekorativ naqshlar tuzishda hamda monumental kompozisiyalar yaratishda asosiy hisoblangan, XYI asrga kelib hayvonot olami anatomiyasini buyuk musavvirlar Leonardo da Vinchi va A. Dyurerlar ishladilar.

Keksa haykaltarosh va grafik musavvir V.A. Vatagin o'zining asarlarida to'rt oyoqli do'stlarini haqqoniy va ishonchli tasvirlaydi.Mashg'ulot rahbari o'quvchilarga nazariy bilim berish jarayonida mazmuniy to'liq ochib berishi uchun jonli nutq orqali so'zlash bilan birga musavvirlar asarlaridan surat – lavhalar, adabiyotlar, kino va diafilmlar va slaydalardan unumli foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Maishiy janr: tasviriy san'atda bu janrdagi asarlar kishilarning kundalik hayotini, turli voqealarni o'zida mujas samlashtiradi. Aksariyat rangtasvirda aks etuvchi maishiy janr ilk bor XYII asrda yashab ijod etgan Golland rassomlari- Piter de Xox, Ostade, Sten, Terborx, Vermer kabilar ijodida namoyon bo'ladi.
Realistik rassomlardan P. Fedotov, V. Perov, V. Maksimov, V. Makovskiy,K.Saviskiy, I. Repin kabilar maishiy janrning taraqqiyotiga katta hissa qo'shdilar. O'zbek rassom laridan R. Ahmedov, M. Saidov Z. Inog'omov, R. Choriyev, G'. Abdurahmonovlar ham shu janrda barakali ijod etib keldilar.

## 1.2. Xiva me’morchilik san’ati tarixidan

### Xiva

Xiva– Xorazmning qadimiy shaharlardan biri bo’lib, o’rta asr sharq me'morchiligining tengsiz javohiridir. U xozirgi Urganch shahridan 25 km janub tomonidagi tekislikda joylashgan.

Rivoyat qilishlariga ko’ra Xiva shahriga Nux payg’ambarning o’g’li Som asos solgan. Shahar karvon yo’lida joylashganligi uchun u erda savdogarlar tez-tez bo’lishib turishardi. Shaharga tushib, uning chuqur quduqidan chiqayotgan obihayotdan bahra olgan yo’lovchilar hayratdan “xey-voh” deb yuborishgan. Buni o’zlaricha talqin qilgan mahalliy axoli shaharni “Xey-voh”, “Xayva”, “Xivaq” deb aytib boshlashgan.

O’sha davr solnomachilaridan biri Al-Istaxriy (930 yil) Xiva shahrini o’z davrining eng yirik 30 ta shahri ro’yxatiga kiritgan.



Eramizdan avvalgi II asrda Buyuk Ipak Yo'li

Xiva shahri va uning tevarak-atrofi Xeykanik (xozirgi Polvonyop) arig’idan sug’orilib obod va xushmanzara bo’lgan. Mazkur ariq Amudaryodan bir irmoq sifatidan ajralib chiqqan. O’zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan 1984-1993 yillarda Xiva shahrida o’tkazilgan arxeologik qazishmalar natijasi shuni ko’rsatadiki, “Ichan Qal'a” xududi eramizdan avvalgi V asrda paydo bo’lgan.

Savdo-sotiq rivojlangan, obod Xiva shahri XIII asr boshlarida mo’g’illar tomonidan vayron qilingan, keyingi asrlarda shahar har tomonlama rivojlangan. Bu erda ma'muriy binolar qurilib, shahar obodonlashtirilib, savdo-sotiq rivojlandi. Lekin, bu yuksalish uzoq davom qilmadi. 1740 yili Eron shoxi Nodirshox Xiva xonligiga xujum boshlaydi. 1740 yili kech kuzda Xiva shahrini ishg’ol qiladi. Nodirshox xujumi natijasida Xiva shahri butunlay vayron qilinib, mamlakat Eronga qaram bo’lgan o’lkaga aylantirilgan. Shundan keyin mamlakatda bir necha yillar

ko’chmanchi turkman zodagonlari hukmronlik qildilar. Ular bilan mahalliy o’zbek zodagonlari o’rtasida davlatni qo’lga olish uchun bo’lgan qonli kurashlar natijasida mamlakat vayron bo’ldi, xalq esa chidab bo’lmas darajada qashshoqlashdi. Nihoyat, qonli urushlar, o’zaro nizolarga bir qadar barham berildi. XIX asrning boshlariga kelib Xiva xonligi taxtiga Qo’ng’irot sulolasidan bo’lgan xonlar chiqib 1920 yilgacha idora qilishgan.

XIX asrga kelib shahar kengaydi, u ikki qismdan, ya'ni Ichan Qal'a shahriston (ichki shahar) va Deshon Qal'a rabot (tashqi shahar)dan iborat bo’lib. Shahar tevaragida esa o’nlab qishloqlar joylashgan edi.




Ichan Qal'a shahriston o’ziga xos yaxlit me'moriy inshootlardan iborat bo’lib, baland paxsa devor bilan o’ralgan, devor aylanasining uzunligi qariyib 2200 metrgacha, balandligi 7–8 metrga, poydevorining qalinligi esa 5–6 metrga teng. Ichan Qal'a to’g’ri to’rtburchak shaklida qurilgan

bo’lib, uzunligi 650 metr, eni 400 metr, ya'ni 26 gektar maydonni egallaydi, to’rtta darvozasi dunyoning to’rt tomonga qaratib qurilgan. Ichan Qal'a devorlari vaqt o’tishi bilan bir necha bor buzilgan va qayta ta'mirlangan.

Deshon Qal'a – rabot. Ichan Qal'a atrofida XIX asrning o’rtalarida vujudga kelgan. Deshon Qal'ada kambag’al-kosiblar, hunarmandlar va mayda savdogarlar yashashgan. Deshon Qal'a 1842 yilda baland devor bilan o’rab olingan bo’lib, hashar yo’li bilan bir oy davomida qurilgan, qal'ani qurishda xonlikning 200 mingdan ziyod aholisi qatnashgan. Bu haqda Ogahiy shunday yozadi: “Ham shu yili 1268 hijriy (1842 melodiy) Muhammad Yoqub mehtar va Otamurot qushbegi boshchiligida Rajab oyining sakkizida, dushanba kuni Xiva devorini qurish boshlangan va o’ttiz kun davomida qurib bitkazilgan”.

Deshon Qal'ani o’rab olgan devorning uzunligi 6250 metr, uning o’nta darvozasi bo’lgan: Xazorasp (Qo’y darvoza), Pishkanik, Angariq, Shixlar, Tozabog’, Shoximardon, Doshyoq, Gadoylar, Qo’sha darvoza va Gandimyon. Deshon Qal'ada turar joylardan tashqari xonning yozgi qarorgohlari uchta bog’– Rofanik, Nurullabek va Nurullaboy bo’lgan. Deshon Qal'a qurilishi bilan shahar ikkita qismga bo’lingan va shahar maydoni bir necha o’n marta kengaygan.

1920 yilgacha Xiva shahrining Ichan Qal'a xududida 33 ta mahalla (machitqo’m) va Deshon Qal'a xududida 34 ta mahalla mavjud bo’lib, ularning har biri o’z nomiga ega edi. Mahalla nomlari u erda istiqomat qilgan kishilarning kasb-koridan darak berib turgan. Shaharda 109 ta katta va kichik ko’chalar, 79 ta masjid, 120 ta qorixona, 64 ta madrasa bo’lgan.

Xiva shahri Xitoydan Rimgacha olib boruvchi Buyuk Ipak yo’lining eng muhim chorraxalaridan birida joylashgan.

Xiva shahri 1990 yil 12 dekabrda YuNESKOning Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib «Butun jahon merosi» sifatida ro'yxatga olingan.

Xiva «Ichan-Qal'a» Davlat muzey-qo'riqxonasi O'zbekistonning eng ko'hna muzeylaridan biridir. Qo'riqxona xududida 54 ta qadimgi tarixiy memoriy binolar, 360 xonadon 2600 aholi istiqomat qiladi.

Xiva «Ichan-Qal'a» tarixiy me'moriy Davlat muzey-Qo'riqxonasi bisotida Xorazmning 3000 yildan ko'proq uzoq tarixini, uning ma'naviy va moddiy madaniyatini yorituvchi 40.000 ga yaqin nodir, asosiy fond eksponatlari saqlanmoqda. Xiva – Oʻzbekistonning qad. shaharlaridan biri. Arxeologik maʼlumotlarga koʻra, shahar mil. av. 5-asrda barpo etilgan. Uning nomi shaharning qad. qismida joylashgan Xivaq (Xeyvaq) qudugi bilan bogʻliq. Baʼzi tadqiqotchilar shahar nomini xorazmiy tiliga yaqin boʻlgan qad. osetin tilidagi "Xiauv" – qalʼa soʻzidan, boshqalari bu atamani antik davrdan Xiva hududidan okib oʻtgan Xeykaniq (hozirgi Polvonyop) kanalining oʻzgartirilgan (Xeykaniq–Xeyvaniq–Xeyvaq–Xeva–Xiva) nomidan kelib chiqqan deydilar. Xorazmlik tarixchisolnomachi Xudoyberdi Qoʻshmuhammad oʻzining 1831 yilda yozgan "Dili Gʻaroyib" asarida Xorazmning qad. shaharlarini nommanom sanar ekan, "Bu mamlakatning yana bir qalʼasi – Qalʼai Ramldir. Bu qalʼaga Som ibn Nuh asos solgan boʻlib, u hozirgi Xivaq nomi ila mashhurdir" deydi.

Xalq rivoyatlarida ham shaharning bunyod etilishi Nuh zamonlariga bo rib taqaladi. Bunda Nuhning oʻgʻli Som boʻlajak shahar yoniga kelib quduq qazdirgan va shu bilan Xivaga asos solgan. Haqiqatan ham Xivaning Ichan qalʼasida qad. Xeyvaq (Xivak) qudugʻi saqlanib qolgan.

Xiva toʻgʻrisidagi dastlabki ishonchli maʼlumotlar 10-asrdan boshlab arabfors tilidagi tarixiygeografik manbalarda uchraydi.

Istaxriy (930) Xivani oʻsha davrdagi eng yirik 30 ta shahar roʻyxatiga kiritgan. U. Xivani Hazoraspdan 8 farsax masofada Jurjoniya (Gurganj) yoʻlida

joylashganligini qayd qiladi. Muqaddasiyning ma’lumotlariga ko‘ra esa Xiva bilan Hazorasp o‘rtasidagi masofa 8 dovon (10 farsax)dan iborat bo‘lgan. Xiva Yoqut Xamaviy (13-asr), Nizomiddin Shomiy (14-asr) asarlarida ham karvon yo‘lida joylashgan shahar sifatida eslatib o‘tiladi.

17-asrda yashab o‘tgan Mahmud ibn Valiy bu shahar to‘g‘risida shunday yozadi: "Xiva keng va bahavo shahar. U shayx Najmiddin Kubroning vatanidir". Abulg‘oziy Bahodirxonning "Shajarai turk" va "Shajarai tarokima" asarlaridagi Xiva xususidagi fikrlari ham ana shu davrga mansub.

Xiva o‘zining tarixiy o‘tmishi, me’moriy tuzilishi, obidalarining yaxlit saqlanganligi jihatidan mazkur qad. shaharlar orasida alohida o‘rin tutadi. Yer kurrasida mashhur bo‘lgan Afina, Rim, Qohira shaharlariga tengdosh bo‘lgan bu shaharning Ichan qal’a qismi (1990) Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan 100shahar bo‘lib, dunyoga alXorazmiy, Najmiddin Kubro, Shihabuddin Xivaqiy, Pahlavon Mahmud, Muhammad Rahimxon (Feruz), Munis va Ogahiy kabi buyuk zotlarni yetkazib bergan azim zamin hisoblanadi.

Mil. av. 5-asr oxirigacha Xiva Xorazm tarkibida Axomaniylar davlati tasarrufida, so‘ngra mustaqil Xorazm davlati tarkibida bo‘lgan. Ilk o‘rta asrlarda Xiva orqali Sharqni G‘arb bilan bog‘lovchi Buyuk ipak yo‘li o‘tgan. 4-asr boshlaridan Xiva – Xorazm bilan birga Sosoniylar davlati tarkibiga kirgan. Budavrda u qal’a devori bilan o‘rab olingan. 712 yil Xivani arablar istilo qilgan. Arab sayyoxdari Istaxriy va Mukaddasiy qo‘lyozmalarida keltirilishicha, Xiva 10-asrda Xorazm vohasida eng yirik shaharlardan biri bo‘lgan. 1221 yildan mo‘g‘ullar imperiyasi, 1389 yildan temuriylar davlati tarkibida, 16-asr boshlaridan 1920 yil 2 fev.gacha Xiva xonligi poytaxti bo‘lgan. Xonlik 1873 yil rus qo‘shinlari tomonidan zabt qilinib, Gandimiyon shartnomasita ko‘ra, Rossiya imperiyasi protektoratiga aylantirilgan. 1920–24 yillarda Xiva Xorazm Xalq Sovet Respublikasi poytaxti bo‘lib turgan.

Xivani arxeologik jihatdan o‘rganish qisman S.P.Tolstov, Ya.G‘.G‘ulomov, A.I.Terenojkin va boshqa tomonidan 20-asr o‘rtalarigacha olib borilgan. 1984–

1993 yillarda arxeologik kazishma ishlari rejali ravishda keng miqyosda olib borildi. Qazishmalar O‘zbekiston FA Qoraqalpog‘iston bo‘limi arxeologlari va xorazmlik arxeologlar hamkorligida amalga oshiridsi. Shahar xududida 6 ta stratigrafik qazilma va 7 shurf belgilandi. Xivaning qad. qismi – Ichan qal’ada 1200 m² bo‘lgan maydon qazib o‘rganildi. Arxeologik ashyolarning 7 m gacha chuqurlikdan topilganligi, shaharning paydo bo‘lish davri qad. ekanligidan dalolat beradi. Shahar tarixiy taraqqiyotining birinchi davrida Ichan qal’a o‘rnida odamlar yashay boshlagan. Arxeologik materiallarning shahodaticha, bu davr mil. av. 5-asrga to‘g‘ri keladi. Kulolchilik charxida tayyorlangan sopol buyumlar majmuasi, shuningdek, paxsa devor qoldiklari shu davrga mansubdir. Mil. av. 5-asr oxirida Xorazm Eronning siyosiy tazyiqidan xalos bo‘lgach, Xivada shahar sistemasining asosiy elementlari shakllana boshladi.

Mil. av. 4–3-asrlarda qal’a atrofi 2 qavatli qalin devor bilan o‘rab olindi. Devor oldin paxsa, uning ustiga xom g‘isht terilib, bunyod etilgan. G‘ishtlarning aksariyatiga tamga bosilgan. Devor orasida (ichida) eni 2 m li yo‘lak bo‘lgan. Devor bo‘ylab, har 22– 27 m masofada minoralar tiklangan. Devordagi minoralar to‘g‘ri burchakli bo‘lgan. Qal’a devorining butun tizimi asosiy devordan 4,4–8,5 m masofadagi qo‘shimcha to‘siq – devor bilan o‘rab chiqilgan.

Devor ichi va yo‘laklardan topilgan sopol buyumlar mil. av. 4–3-asrlarga taallukli. Bo‘yin qismi ingichka, nozik kilib ishlangan xum va xumchalarning sirtiga och pushti rangda gul naqshi solingan. Yana bir nodir topilma – ko‘zachaning sher kallasi shaklidagi dastasidir. Qad. qal’a devori va yo‘laklar Xiva o‘sha davrda vohada yirik shaharlardan biri sifatida Xeykaniq (Polvonyop) kanali sohillari hamda sohilga yaqin hududlarni nazorat qilib turganligini tasdiqlovchi dalildir.

Xiva dastlab agrarhunarmand shahar sifatida rivojlandi. Mil. av. 2-asrda Xivaning katta qismi qum ostida qolgach, aholi shaharni tark etdi. Ichan qal’a devorlari vayron bo‘ldi.

Mil. boshlarida shaharda hayot yana tiklana boshladi. Qal’a devorining g‘arbiy qismida ark bunyod etildi. 1–3-asrlarda (Kushonlar davri) Xiva Ichan qal’a

devorlari tashqarisidan qalin g‘ishtin devor bilan mustahkamlandi, natijada shahar devori qalinligi 7,5– 9 m ga yetdi.

Arxeologik tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, mil. 4–5-asrlarda shaharni yana qum bosgan. 6–8-asrlarda Xiva qayta tiklana boshladi. Xiva xududida zamindorlarning dastlabki ko‘shklari paydo bo‘la boshladi. Ichan qal’ada shunday ko‘shklardan 2 tasi topilgan.

**O‘rta asrlardagi tarixi**[tahrir]

Shahar Xorazmshoxdar davri (12–13-asr boshi) ravnaq topib, hududi kengaydi. 1220–21 yillarda Xiva Chingizxon qo‘shinlari tomonidan vayron etildi. Keyinroq qayta tiklana boshladi. Hunarmandchilik (kulolchilik, koshinkorlik va boshqalar) rivojlandi.

Keyingi davrda ayniqsa, 16–19-asrlarda shahar jadal taraqqiy eta bordi. Quyi Volga, O‘rta va Yaqin Sharq shaharlari bilan savdo aloqalari o‘rnatildi.

Xiva 16-asrning 2-yarmidan Xorazmning poytaxtiga aylangach, har tomonlama rivojlandi. Me’moriy qiyofasi ham o‘zgara bordi. Shahardan o‘zaro ko‘ndalang kesishgan 2 ta katta ko‘cha va 4 darvoza (Otadarvoza, Polvondarvoza, Bog‘chadarvoza, Toshdarvoza) orqali Dishan qal’a (rabod) ga chiqiladi. Ichan qal’a devorining uz. 2200 m, bal. 6–8 m, tag zaminining qalinligi 5–6 m. Qal’a to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida qurilgan bo‘lib, uz. 650 m, eni 400 m, jami 26 ga maydonga ega.

Xivaning rabod qismi Dishan qal’a 1842 yil Olloqulixon davrida (1825– 42) baland devor bilan o‘rab olingan. O‘sha davrda Ichan qal’ada 33 mahalla (machitqavm) va Dishan qal’ada 34 mahalla bo‘lgan. Mahallalar nomi shu yerda yashayotgan aholining kasbkori (Chitkarlik, Elakchilik, Kulollar, Misgarlik, G‘assollar) yoki shaxs lavozimi (Otamurod qushbegi, Yoqub mehtar, Yusuf yasovulboshi) bilan atalgan. Shaharda 109 kattakichik ko‘cha, 79 masjid va 120 qorixona bo‘lgan. Xivada 19-asr o‘rtalarida 20 ming kishi yashagan. Shahar, asosan, 19-asrning 2-yarmidan kengaya bordi.

**Yangi davrdagi tarixi**[tahrir]

Xiva o‘zbeklari, 1913-yil.1874 yilda shahar ma’muriy jihatdan Qumyosqa, Kaptarxona, O‘r, Ko‘hnabozor, Kaltaminor, Amin chorsu, Mevaston, Qoraa’lam va Yangi qal’a mavzelariga bo‘lingan. Xiva xonning "mulki xolisasi" hisoblanib shaxsan uning o‘zi tomonidan boshqarilgan. 19-asr oxiri – 20-asr boshlarida Xivada 64 Madrasa, 79 masjid bo‘lgan. 1924 yil shaharda olingan aholi ro‘yxatida 4029 xonadonda 18145 kishi qayd qilingan. Xivaning ilk tarhi 1740 yilda chizilgan. Shahar tarhi uzunasiga 1 ming m, eniga 400 m bo‘lib, 40 ga maydonni egallagan. Uning butun tevarak atrofi suvli xandaq bilan o‘rab olingan. Shaharga sharq tomondan maxsus ko‘prik orqali kirish mumkin bo‘lgan. Ko‘prik kechalari ko‘tarib qo‘yilgan. Ko‘prik yonidagi darvozadan boshlangan katta ko‘cha to‘ppato‘g‘ri Ark darvozasiga borib taqalgan. Ark shaharning g‘arbiy qismida joylashgan. Shaharning asosiy ko‘chasi uni 2 qism (shim. va jan.) ga ajratgan. Arkda xon saroyi, haramxona, aslahaxona bo‘lib, ular maxsus qal’a devori bilan o‘ralgan. Lekin, o‘sha davrdagi ba’zi inshootlar chizmaga kirmay qolgan. Shaharning yana bir tarhi Rossiyadan maxfiy topshiriq bilan kelgan topograf G.N.Zelenin tomonidan 1839 yilda chizilgan. Zeleninning ma’lumotlariga ko‘ra, shaharda o‘sha davrda 17 ta masjid, 22 ta mahalla va 260 savdo rastasi bo‘lgan. Shaharning juda aniq va mukammal bo‘lgan so‘nggi tarhi 1873 yilgi rus istilosidan so‘ng rus topograflari tomonidan tuzilgan va o‘sha yiliyoq "1873 yilgi Xiva yurishlari" maqolasiga ilova tarzida bosilgan.

Me’moriy ansamblining yaxlitligi jihatidan shahar O‘rta Osiyoda yagona hisoblanadi. 1967 yilda O‘rta Osiyoda ilk bor Xivaning Ichan qal’a (shahriston) qismi tarixiyme’moriy yodgorliklar qo‘riqxonasi deb e’lon qilindi. Xivaning jahon madaniyati taraqqiyotida tutgan o‘rni YUNESKO Bosh konferensiyasining (1995 yil oktabr–noyab.) 28sessiyasida alohida qayd qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 3 yanvardagi qarori bilan Xivaning 2500 yilligi 1997 yilda jahon miqyosida keng nishonlandi.

Sanoat va ishlab chiqarish[tahrir]

Shaharda "XivaKarpet" qo‘shma korxonasi, sopol buyumlar, paxta tozalash, g‘isht zavodlari, tikuvchilik, "Xiva gidami" aksiyadorlik jamiyati va boshqa gilam to‘qish korxonalari, non kti, dehqon bozori, madaniy, savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish shoxobchalari faoliyat ko‘rsatadi. Urganch universitetining agromenejment fti, O‘zbekiston FAning Xorazm Ma’mun akademiyasi bo‘limi, Qoraqum i.t. stansiyasi, ped., tibbiyot, turizm kasb-hunar kollejlari, kasbhunar litseyi, gimnaziya, 15 umumiy ta’lim maktabi, mehribonlik uyi, 2 maxsus internat, viloyat qo‘g‘irchoq teatri, san’at maktabi, 2 kutubxona va uning tarmoqdari, madaniyat va istirohat bog‘i mavjud. AlXorazmiy, Feruz yodgorliklari, birinchi o‘zbek kinooperatori Xudoybergan Devonov muzeyi, markaziy stadion, sport majmuasi, tennis korti, sport zallari va boshqa sport inshootlari bor.

Tuman markaziy kasalxonasi, poliklinika, tug‘ruqxona, bolalar kasalxonasi, tish davolash markazi, markaziy dorixona, xususiy dorixonalar va boshqa tibbiy muassasalar mavjud.

Tarixiy-me’moriy obidalardan Sayd Aloviddin maqbarasi, Pahlavon Maxmud majmuasi, Juma masjid, Ko‘hna Ark, Oqshayx bobo ko‘shki, Toshhovli, Nurullaboy saroyi, Muhammad Aminxon madrasasi, Muhammad Rahimxon madrasasi, Islomxo‘ja madrasasi va minorasi, Olloqulixon madrasasi, Qutlug‘murod inoq madrasasi, Olloqulixon karvonsaroyi va timi, Anushaxon xammomi, Oq masjid, Polvon darvoza, Ota darvoza, Bog‘cha darvoza, Tosh darvoza, Hazorasp darvoza, Kush darvoza va boshqa saqlanib qolgan.

Shaharda "Xiva–Sharq gavhari" jurnali (2001 yildan), "Xiva tongi" tuman gaz. nashr etiladi. Shahar jahon turizmi markazlaridan birga aylangan. Xivaga har yili 200 mingdan ziyod sayyoh, shu jumladan, 7 mingga yaqin xorijlik sayyoh va mehmonlar tashrif buyuradi. Shaharda "O‘zbekturizm" milliy kompaniyasiga qarashli va bir necha xususiy mehmonxonalar ishlab turibdi.

Xivadan Urganch shahriga trolleybus katnovi yo‘lga qo‘yilgan (1997). Xiva–Toshkent, Xiva–Buxoro, Xiva–Navoiy–Samarkand–Toshkent yo‘nalishida, shuningdek, Urganch, Qo‘shko‘pir, Yangiariq, Bog‘ot, Hazorasp va viloyatdagi boshqa shahar va yirik aholi punktlariga avtobuslar va marshrutli taksilar qatnaydi.

## 2.1.Komozitsiyaning asosiy qonun va qoidalari.

Kompozitsiya - qonuniy tashkil qilingan organizm, uning hamma qismlari mustahkam aloqada va o'zaro bog'liqlikda. Bu aloqa va o'zaro bog'liqlik xususiyati rassomning g'oyaviy fikri bilan belgilanadi.Fikr mohiyatiga xos bo'Igan konstruktiv g'oya kompozitsiyasining amaliy asosini beradi .Tabiatning go'zal manzarali bo'lagiga ko'zimiz tushganda undagi elementlatning bir-biri bilan uyg'unligi topilganligidan nihoyatda zavqlanamiz. Bu, albatta, tabiat in'omi.

Kompozitsiya inson ijodining barcha turlarida ham keng qo'llaniladi. Shuningdek, u she'riyatda, san'atning barcha turlarida ham mavjud. Kompozitsiya rassomlik asri, me'moriy obida, majmua, dizayn san'atiga xos buyumi yaratishda keng qo'llaniladi. Ushbu fan ijodiy yo'nalishdagi mutaxassislar uchun suv va havodek zarur. Ijodkor asarinig muvaffaqiyqti uning kompozitsiyasi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham o'z asarlarida kompozitsiya jihatdan yaxshi natijalarga erishgan ijodkorni, u xoh rassom bo'lsin, xoh me'mor bo'lsin o'z sohasining kompozitori deb atashgan.

Kompozitsiya o'ziga xos qonun va vositalaridan tashkil topgan. Uning asosiy qonunlariga muvozanat va umumiylik kiradi. Muvozanat simmetrik va asimmetrik kompozitsiyalarda turlicha namoyon bo'ladi. Muvozanatga elementlar miqdori, shakli, ularning muhit bilan o'zaro munosabati, rangi, fakturaviy yechimining uyg'unligi bilan erishiladi.

Asimmetrik kompozitsiya rassomlik asosiy personajlar guruhining manzara yoki fazoviy muhit bilan, me'morchilikda hajmni fazo bilan birlashtirish yoki fazoni o'ziga bo'ysundirish imkonini beradi.

Simmetrik suv va asimmetrik kompozitsiyaning birini ikkinchisidan ifodaliroq, deb bo'lmaydi. Ko'pgina rassomlar va me'morlarning mashhur asarlarida asimmetrik kompozitsiya qo'llanilganini guvohi bo'lamiz.

Rassomchilik, arxitektura, dizaynerlik asarlarida kompozitsiya yaratish uchun proporsiya, nyuans, ritm, mashtab kabi asosiy vositalar qo'llaniladi. Mazkur vositalar arxitekturada va dizayn buyumlarda shaklga badiiy obraz beradi. Rassom asarida ham personajlar orasidagi mutanosiblikni muvofiqlashtiradi, uzoq va yaqinni o'zaro birlashtiradi, soya va o'ta yorug'likni uyg'unlashtirib aks ettirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Hajmiy kompozitsiyada 3 o'lcham (uyg'unligi eni va balndligi) ichida ijodiy izlanish olib boriladi. Unda kompozitsiyaning barcha vositalaridan unumli foydalinadi. Xususan, me'moriy obidaning fazo va muhit bilan o'zaro aloqasini yaxshilashda plastika, kalarit,faktura, hajm og'irligi, man ova g'oyaning ahamiyati katta.

Takishlash joyizki, hajmiy kompozitsiya badiiy plastik prinsiplar o'zgarib turadi, yangi stillar yuzaga keladi, qo'llaniladigan xom ashyolar o'zgaradi, ularni qo'llash usullari o'zgaradi, lekin uyg'unlik va go'zallik yaratuvchi kompozitsiya qonunlari o'zgarmaydi.

**Chuqurlik- fazoviy kompozitsiya** yaratishda uyg'unlik qonunlari: muvozanat qonuni, birlik qonuni va bir-biriga bo'ysunish qonuni hamda kontras, ritm, nyuans, o'xshashlik, praporsiya va mashtab kabi uyg'unlik vositalaridan foydalaniladi. Chuqurlashgan - fazoviy kompozitsiya rassomchilikda, prespektivada ham keng qo'llaniladi. Me'morchilikda yuqoridagi qonun va vositalarning birontasiga amal qilinmasa, bunday kompozitsiya, birinchidan, mukammal badiiy asar darajasiga yetmaydi.

**Fazoviy kompozitsiya** yaratishda fakturaning ahamiyati katta. Faktura shakllarining umumiy ko'rinishi, ranglarning so'niq- ravshanligi darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan shakl yuzasiga rangni yutadigan yoki kun og'ishi bilan yorug'likni yutadigan, yoki qaytaradigan xususiyatga ega faktura berib, uning ko'ziga tashlanishi kamytirish yoki uning og'ir engilligini kuchaytirish mumkin. Bu holda imorat, buyum kompozitsiyasida nazarda tutilgan asosiy shakl emas, boshqa shakllarning dominatlikka da'vo qilishiga imkon yaratish mumkin. Grafik dizaynda ham shu holat seziladi.

San'at asarlarini tashkil qilganimizda,kompozitsiya qoida va usullari o'z mohiyatini asta -sekin yoqotib, yangi kompozitsiya qoidalari pay do bo'lib boshladi. Badiiy asar yaratishda rassomlar tabiiy va ongli ravishda kompozitsiya qonunlariga rivoya qilishadi. Har bir ijtimoiy jamiyat san'at oldiga yangi zamonaviy vazifalarni ko'ndalang qo'yadi.

Hozirgi vaqtda biz kompozitsiyaning nazariy asoslarini ikki guruhga ajratamiz.

## Kompozitsiya qonunlari

Kompozitsiya qoida va usullari. Kompozitsiyaning asosiy usullaridan biri ritmni ifodalash kompozitsiya mavzusi markazini aniqlash, simmetrik va asimetrik holati, massani ikkinchi plandagi kenglikdagi asosiy qurilmasini joylashtirish. Ritm hayotda va san'atda mavjudligi rassom uchun yaxshi belgi, vositadir. U bir elementning oraliqda galma- gal qaytarilishidir. Asar g'oyasining kompozitsiya tuzulishi idrok etishda ritm estetik obrazli tasavur rolini o'ynaydi va kontrast'rang, ton qonunlariga suyanadi.

Uzoq kenglik ochiq manzarada gorizontal holatda tasvirlansa, kenglik bepoyon, katta bo'lib tuyuladi.

Kompozitsiyani gorizontal usulda ifodalashda tinch, osoyishtalik holatini sezamiz. Kompozitsiyani parallel, vertikal yo'nalishda bo'lishi tantanali ulug;vor, ko'tarinki ruh holatini anglatadi.

Deogonal yo'nalishi esa harakat holatining kuchayishi yoki susayishini ko'rsatadi.

Tasviriy san'at kompozitsiyaning qonun - qoidalardan foydalanish ibtidoiy davrdan boshlab shakllangan. Tabiatga sergaklik bilan e'tibor berib, barglar, shoxlar gullarning tuzulishini kuzatganlar, yil fasllarning, takrorlanib kelishi, kun va tunning farqlarini anglab tabiatdagi ritm va simmetriyani tushunib yetganlar. Masalan, qadimgi greklarni relyeflarida ritm aniq sezilib turadi. "kompozitsiya" ustida ishlash va barcha tayyorlov bosqichlari ijodiy jarayon hisoblanadi.

**Ijod** - bu inson ongining yuqori va murakkab darjasidir. U insonnig bilimi, malakasi hayotiy tajribalari natijasida tug'uluvchi mo'jizadir. Tsviriy san'atda ijodning natijasi badiiy asar yaratishidan iborat.

Badiiy ijodning mohiyati, ijod faoliyatining strukturaviy faktorlariga bo'linishi masalasida qiziqarli g'oyalar L.G.Ermashning o'tkazgan "san'atning ijodiy tabiati " tadqiqotida berilgan. Ijodning kuchi "ruhiy va amaliy qobiliyatlar "- bu mehnat, ilhom, xotira tafakur, badiiy talant, xayol, xissiyot kabilar yordamida amalga osha boradi.

**Mehnat** - insonning asosiy faoliyat turlaridan biri hisoblanadi va shu tufayli inson moddiy va ma'naviy boyliklar yaratadi. Mehnat natijasida san'at asari yaratiladi. Ijodiy mehnat tabiatni kuzatish, adabiyotlar o'qish , materiallar yig'ish qoralama va xomaki rasm,etyudlar chizish, kompozitsiya eskizlari ustida ishlash , dunyo qarash, mahorat malakalarini egallash va asar yaratish rassomning individual xususiyatlari xolatlaridir.

**Xotira** - badiiy ijodning reproduktiv kuchi hisoblanib, insonning tajribasini namoyon qiladi. Inson hayotida, har qanday faoliyatida xotirani chetlab o'ta olmaydi, o'sha tassurotlarni tahliliga ko'ra naturasiz kompozitsiya eskizini chiza oladi. Naturada ishlashda olingan tasawurlar yigindisi va ko'rish taasurotlari, asarni qamrab oluvchi qimmatli obrazda yaratishga imkom beradi. Juda ko'p mashq qilgan va o'zining ko'rish xotirasini rivojlantirgan buyuk rus rassomi

A.Serov kichik yoshidayoq, xotiradan sur'at chizishni yoqtirardi. I.K.Ayvazovskiy esa hayron qolarli darajada ko'rish xotirasiga ega edi.

**Iroda** - ijod kuchining samarasini belgilovchi ijod uchun eng zarur psixik jarayonlaridan biridir.Iroda - aqliy va jismoniy kuch quvatni ongli ravishda boshqara olish demakdir. Murakkab irodaviy harakat maqsadni amalga oshirishga olib keladi. Mustaqillik, sabr-toqatlilik o'z-o'zini boshqara olish irodaning muhim xususiyatlari hisoblanadi. Iroda katta kuch sifatida ijodni aktivlashtirib yuqori natijalarga erishtiradi.

**Tafakkur**-ijod kuchlaridan biri bo'lib, borliqni haqida fikrlashda, taxlil qilishda idrok, sezgi, hissiyotni badiiy asar yaratishga yo'naltiruvchi maqsadida ishlatadigan vositadir.Badiiy asar inson faoliyatining boshqa sohalardagi kabi tafakkurning mahsuli hisoblanadi. San'at asari faqat tasviry vositalarni o'z ichiga olibgina qolmay, balki g'oyaviy - estetik mazmun, dunyoqarash, falsafiy tushunishni ham qamrab oladi. Rassomning tafakkuri ijodiy xarakteri bilan ajralib turadi, ijodiy xayol bilan birga harakatlanadi.

Ilxomlanish-insonning mehnat jarayonidagi eng ko'tarinki ruhiy holatdir.Rassomning ijodiy mehnatida ilhomlanish, aktiv ijod kuchlaridan biri sifatida ahamiyatli rol o'ynaydi. Ilhomlanish - ijodiy , ma'naviy, jismoniy jihatdan rassom uchun ijodiy vaziyat juda tez yechilgan bo'ladi. Bunda rassomning ijodiy xayoli, tafakkuri faol faoliyat ko'rsatadi.

**Badiiy talant** - shaxsiy psixologik xususiyatlardan biri bo'lib, badiiy ijodda eng katta kuch sifatida faol ishtirok etadi. Tug'ma talant insonning o'zida tug'ma anatomik va fiziologik tuzulishida o'ziga xoslik bilan mavjud bo'ladi. Badiiy talant, albatta, san'atga mehr- muhabbatni talab etadi va ijod qilish ishtiyoqi tinchlik bermaydi. Insonning badiiy iqtidorining eng yuksak darajali sifati bu geniallikdir. Badiiy ijodda geniallik tushunchasi talantning izohsiz yuqori darajada namoyon bo'lgan sifati bo'lib, u rassomni ma'lum tarixiy davr san'atidan yuqori turuvchi va dunyoviy ahamiyatga ega bo'gan san'at asarlari yaratishga olib keladi.

Ijod komponentlariga - bilim, dunyoqarash, badiiy uslub, estetik va badiiy did, mahorat kiritiladi. Bilim ijodning asosiy bosh komponenti hisoblanib, uni egallash orqali sezgi, estetik his qilish, idrok , tafakkur, xotira, dunyoqarash, malaka, ijod uslubi, mahorat rivoj lanib boradi.

Rassom uchun bilim - bu hayotiy material hayotni chuqur har tomonlama o'rganish bo'lib u siz san'at asari yaratib bo'lmaydi. Rassom har tomonlama hayotni yaxshi bilgan, bilimli, ziyoli bo'lmog'i lozim. Undan tashqari, u bilimni o'zining hissiyotlari orqali umumlashgan shaklga badiiy obrazda (orqali) aks ettirmog'i lozim.

**Dunyoqarash** - obyektiv borliqni badiiy xarakterda faoliyatning g'oyaviy yo'nalishiga mos xolda aniqlashdan iboratdir. Dunyoqarash fanlardan olingan bilimlar asosiga suyanadi.

Estetik va badiiy did ham, dunyoqarash badiiy uslub bo'lib rassomning ma'lum alohida g'oyaviy estetik ijodiy yo'nalishini ko'rsatadi. Estetik va badiiy did insonga tug'ilganda berilmaydi, balki qobiliyat kabi insonning o'sishi bilan rivoj lanib boradi.

**Mahorat**- tasviriy san'atning zaruriy sharoitida namoyon bo'luvchi shaxsning badiiy qobiliyati, ruhiy xususiyati va sifatlaridir. Mahorat yuqori darajadagi bilim tasviriy texnika, ko'nikma, malakani mukammal egallamoqdadir.

## Kompozitsiya vositalari

Chiziq, shtrix, rangli va tusli dog' (surtma) soya- yorug', rang, chiziqli, havo va rang prespektivalari kompozitsiyasining vositalaridir. Chiziqni esa tasviriy san'atning asosiy vositalardan biri deyish mumkin. Undan uzoq muddatli, qisqa muddatli kompozitsiya eskizlarida foydalaniladi. Rassom qog'oz yuzasida narsa shaklini ochiq,to'qroq chiziqlar orqali ifodalashi mumkin.

Kompozitsiya amalda dastlab qalam tasvirda bajariladi. Keyingi boshqichda shtrix chiziqlarning qalinligi narsalarning soya, yorug' joylarga shakl berib,

chuqurlik, masofani ifodalashga beradi. Rang vat us kompozitsiya tuzishda muhim rol o'ynaydi. Asarda plastic hajm, chiziqli, havoyi, rangli prespektivalarning roli kattadir.

Kompozitsiya kursining asosiy vazifasi talabalarda ijodiy fikrlashni, san'atni idrok etishni va tahlil etishni, hayotni kuzatish va obrazli tasawur etish, badiiy estetik did va madaniyatni shakllantirish, ularni badiiy- pedagogik faoliyatga tadbiq qilishdir. Kompozitsiya amaliy hamda nazariy qismdan iborat.

Amaliyotda kompozitsiyaning zaruz usullari mavjud. Yaxlitlik qonuni, o'xshatish, kontrast qonun vositalari mazmunini va g'oyaga bo'sunish kompozitsiyaning asosiy qonunlari hisoblanadi.

Kompozitsiya haqiqat qonuni- asosan uchia belgi bilan ifodalanadi. 1. belgi bu badiiy asarda sodir bo'layotgan voqeaning o'ziga xosligi.

Tipizatsiya qonuning 2. belgisi - bu sodir bo'layotgan voqea mazmunini, harakat holatini, vaqtini tasvirlaydi.

Insoniyat tashqi dunyoni tasvirlashga intilishi juda qadim zamondan ma'lum. Ibtidoiy davrdayoq odamlar mamont suyaklarida, g'orlarda toshlardagi chizgilarda mahoratga erishganlar. Ular hayotni zehn bilan kuzatsalarda kompozitsiya sezgisi juda bo'sh rivojlangan. Ularning tasviriy san'at namunalari tasodifiy emas, balki ko'p yillik mehnat tajribasining natijasi ekanligiga guvoh bo'lamiz. Qattiq jism inson qo'lida pichoq shakliga keguncha uzoq muddatli bosqichlarni, tarixiy voqealarni bosib o'tgan. Inson qo'li bilan hayot uchun zarur bo'Igan mahsulot asbob buyumlarning shakli, jihati, avloddan avlodga, otadan bolaga, o'tish natijasida o'zgarib boradi. Hayotda inson qo'li bilan murakkab mehnat jarayoni orqali yuqori malakaviy bosqichga erishildi va uning sehirgar kuchi Rafael asarlarida, Poganin musiqasida namoyon bo'ldi. Odamlar o'zlariga boshpana qurishni, uy jihozlarini yartishni, shuningdek tasviriy san'at vositalarini birdaniga anglamadilar. Inson ming yillar davomida qo'llagan tajriba asosida tabiat

dunyosini, qush va hayvonlarini chizgilarda tasvirlay boshlagan. Jonli kuzatish natijasida rasm chizishni o'rgatish amalga oshirilgan.

Insoniyat jamiyat taraqiyotining pastki pog'ona rivojlanish bosqichida tasviriy san'at mehnat jarayoni bilan bog'lig' to'plagan bilimlarni keksa avloddan farzandlariga me'ros bo'lib o'tgan. Bolalar kattalarga tahlid qilish yo'li bilan rasm chizish bilimini egallashdi. Yerga ishlov va hunarmandchilik insonni san'atga bo'gan munosabatini o'zgartirdi. Rasm chizishni tushuna bordi va alohida kasb sifatida foydalandi. Meros qolgan bilimlarni yasagan buyum ashyolarni tashqiga tasvirni tushurib bezak berdilar. An'analarni rivojlantirib o'qitish uslubi ham o'zgarib, ijodiy fikrlash o'zgarib bordi. Usta hunarmand shogirtning muvaffaqiyatiga befarq bo'lmadi. Unga isharni bajarish yo'llarini o'rgatdi.

Shunday qilib, o'qitish uslub yo'llari o'zlashtira boshlandi. Lekin aniq ishlab chiqilgan o'qitish uslublari yoq edi. San'atga o'qitish asosan sivilizatsiya taraqqiyot darvida pay do bo'di. Taraqqiyot davridagi tasvirlashga o'rgatish metotlarini o'rganishdan oldin rivojlangan qadimgi misr san'atiga murojat qilamiz. Shaharlar va ularda saroy, qasr - koshonalar, jamoat binolari qurilishi bilan ko'p sonli hunarmand va rassomlarga zarurat tug'ildi. Amaliy san'at ustalariga talab kuchaya bordi. Shu bois maxsus maktab tashkil qilish zarur bo'ldi.

Plastik san'atning buyuk namoyondasi I.Repen kompozitsiyani nazariy va amaliy rivojlanishiga muhim hissa qo'shdi. Shuningdek tarixiy janrda har tomonlama yangi novatorlik vositalari bilan V.Surikov rus rassomlariga o'z ta'sirini o'tkazdi. U kompozitsiya eskizini bajarishga alohida ahamiyat berdi. O'ylagan mavzu rassom tasavurida tiklansa, u darrov qo'liga qalam, ko'mir qalam, mo'y qalam olib eskiz bajarishga kirishardi. Ayniqsa "Boy Bayarina Morozina" kartinasi uchun, o'nlab yuzlab qalam lavha, rang lavha eskizlar bajargan. U mavzuga oid o'tgan tarixiy voqealarni sinchiklab o'rganadi.

19 asr oxiri 20asr boshlarida Rassiya san'atida va o'qitish tizimida ilg'or-progresiv yo'nalish bilan bir qatorda reaksion kuchlar ta'sirida, burjua falsafasiga taqlid qilgan yangilik "Novizna "oqimi han paydo bo'la boshladi.

Maishiy janrdagi kartina mazmunini kompozitsiyani badiiy yuksak yaxlitligi asta sekin o'z kuchini yo'qota bordi.

Ko'p yillik pedagogic faoliyat mobaynida qalam tasvir va kompozitsiyadan mukammal o'quv tizimi shakllandi. Kompozitsiya hayot hodisalarini obrazli aks ettiruvchi vosita bo'lib talablardan ma'lum bir formatda oddiydan murakkab eskizlar bajarishga o'tish prinsiplarini qo'ydi. Keyinchalik kompozitsiya nazariyasi, amaliyoti va ularni o'qitish metodikasini asosiy prinsiplarini ishlab chiqishda ulug' rus rassomlari o'z hissalarini qo'shdilar.

## 2.2. Manzara janrida ijod etgan rassomlar

Tasviriy san'atda kompozitsiiyaning dolzarb muammolaridan biri rangtasvirda manzara janri hisoblanadi. Aslida, biror bir musavvir topilmasa kerak, o'z ona yerini tabiatining go'zalligiga befarq qoladigan. Shu bois rassomlar o'zi yashayotgan tabiatini go'zal bir bo'lagini tasvirlashda bor e'tiroslarini yetkazishga va tasviriy vositalar yordamida o'z munosabatlarini bildiradilar. Manzara mavzusida ijod qilgan ko'plab klassik rassomlar: I.Levitan, S.Shedrin, I.Shishkin va boshqa rus manzarasini beqiyos go'zalligini o'z polotnolari uchun mavzu qilib tanlagan edilar. Ular yozgan kartinalar sirasiga kiruvchi I.Levitanning "Oltin kuz", I.Shishkin "Quyosh yoritilgan qarag'aylar", "Uzoq o'rmonlar", F.Vasilev "Qarg'alar uchib keldi", V.Polenov "Moskva hovlisi " asarlari tahsinga loyiq. Chunki ular asarlari orqali tabiatning turli xildagi kayfiyatini ochib berishda ustalarcha mahorat ko'rsatishgan.

XX asrga kelib O’zbekistonda rangtasvir kompozitsiyalari shakllandi. Natijada ona yurtimizda manzara janrining shakllanishi va shu sohada ulkan o’zgarishlar yuzaga keldi. Ular orasida "Sharq Levitani" nomi bilan mashhur bo’lgan O’rol Tansiqboyev yurtimiz tabiatining beqiyos go’zalligini birinchi bor tasvirlay oldi. "O’zbekistonda mart", "Qayroqum GES tongi", "Issiq ko’l oqshomi" asarlarida O’zbekistonning takrorlanmas tabiati go’zalligini ko’rsata oldi. N.Karahan "Oltin kuz", R.Timirov "Samarqand", P.Benkov "Karvon saroy", "Ho’ja Zayniddin masjidi", "Labi hovuz", A.Mirzayev "Bahmal", Z.Inogomovning "Choyga" kabi asarlari O’zbekiston rangtasvir sahnasidan yuqori pog’onalarini egalladi.

Ular yaratgan kartinalarda O’zbekiston tabiatining rang- barangligi o’zgacha chiroy, shuningdek takrorlanmasligi har qanday kishini befarq qoldirmaydi. Ayniqsa tog’li vohalar o’z aksini topishi, bahorda o’ta nozik chiroy bilan to’shalgan qir-adirlar, bog’lar, insonga faqat go’zallikni ko’rib, kuzatib qolmay, balki qaysi yurtda yashayotganligini eslatib qo’yadi va estetik zavq bag’ishlaydi. San’at asosida badiiy timsollar orqali tevarak atrofdagi hayotda yuz berayotgan narsalarni haqqoniy tasvirlash kabilar yotadi. San’at o’z vositalari yordamida dunyoni tan olish, insonda ma’naviy sifatlarni shakllantirish ongini, sezgilarni dunyoqarashi kabilarni kengaytirish bilan chegaralanmay shuningdek qobiliyat, iqtidor kabi sifatlarni uyg’otadi. San’at mehnat faoliyatiga ijobiy ta’sir ko’rsatib kelgusi ish faoliyatiga yangi estetik xususiyatlarni targ’ib topishga xizmat kiladi.

Aslida tasviriy san’atning rangtasvir yo’nalishi bilan shug’ullanadiganlar tez orada fanga yaqinlashadi va bog’lanib qoladi. Rassom ham olimlar kabi hayotda yuz berayotgan hodisalarga befarq bo’lmay, uning asl mag’zini chaqishga har qanday tasodifiy voqealarni to’liq anglashga ular bilan o’ta qiziqqon holda, hodisaning o’tkinchi yoki o’zgacha xususiyatlari bilan tanishadilar, rangtasvir boshqa fanlardan o’z xususiyatlari bilan farq qiladi. Fan ma’lum bir sohaning muammolarini ilmiy asoslab bersa, san’at tevarak atrofdagi voqealarni badiiy timsollar yordamida tushuntirishga ko’maklashadi. Hayotda yuz berayotgan o’zgarishlar shahsiy xususiyatlarni shakl va ranglar orqali anglashga undaydi. Bu borada rangtasvir hayotning salbiy va ijobiy ko’rinishlarini muhokama qilib ular

ustidan "yaxshi yoki yomon" degan xulosa bilan hukm chiqaradi, shuningdek ularga qarshi kurashadi. Ilgari surilgan maqsadli g’oya esa, go’zallikga intilish eng yuqori va aniq haqiqatga erishish bilan bir qatorda insonning orzu istaklari mujassamlashgan ezgu niyatlarini yuzaga chiqarib kabi mardlik jasorat sifatlarini shakllantirishda poydevor sifatida zamin yaratadi. Hozirgi paytda mamlakatimizda san’atga nisbatan insoniy munosabatlarga qarashlar shakllanib borayapti, ayniqsa yosh avlodga tarbiya berish jarayoni estetik tarbiya hususiyalarini qamrab olganligi bilan muhim ahamiyat kasb etayapti.

## Manzara janrida rus rassomlari ijodi

Rus rassomi Aleksandr Ivanov(1806-1858) o’zining «Isoni xalq olidiga kelishi» asari ustida Italiyada 25 yildan ortiq ish olib boradi. Asarni ta’sirli chiqishi uchun u tipajlardan tashqari juda ko’plab ochiq havoda etyudlar ishlaydi. Bu etyudlar tabiatni diqqat bilan kuzatish natijasida joyning aniqligi, nam havoning janub quyoshi nurlari bilan eritilganligi, qirg’oqdagi toshlarning suv xavzasidagi aksi va suv ostidagi toshlarning shakllari ranglar jilosida aks ettirilgan. XIX asr 2-yarmi rus rangtasviri qator yetuk manzarachi rassomlarni yetishtirib berdi. Dastlabki davrda sayyor rassomlar faoliyati ijodiga bog’liq bo’lgan manzarachilar xalqqa xos bo’lgan manzara kayfiyat his-tuyg’uli manzara obrazlarini yaratishdi. Ular orasida avvalambor A.K.Sovrasov (1830-1879) nomi tilga olinishi kerak. Uning sayyor rassomlarining 1871 yilgi birinchi ko’rgazmasida namoyish etilgan «Qarg’alar uchib keldi» asari yangi toifadagi rus klassik manzarasi bo’ldi. Asarning yangiligi – ko’zga tashlanmaydigan cheka qishloqni tasviridir. Qishloq tabiati qish qahatchiliklarini boshidan kechirgan, ammo hali bahor iliqligi bilan qamralmagan. Yosh qayinlar ustiga in qura boshlagan qarg’alar bahor darakchilaridir. Manzara xuddi hikoyadagidek sezilmas voqealardan tashkil topgani kabi, ko’l osti erib suv aylana boshlaganligi, qirmizi ranga to’layotgan tol-novdalar, cherkov hovlisidan ko’tarilayotgan yengil tut va hokazolar tirik tabiatning jonlalanishining hosilasidir. Agar Savrasov rus lirik asoschisi va Erkin vakili bo’lsa I.Shishkin (1832-1898) manzarada o’zining so’zi bilan aytganda «Bepoyonlik, kenglik, o’tloqzor, bug’doyzor rus boyligi»ni, ya’ni bir mavzuni

musavviridir. Uning «Jovdar» asari eng harakterli bo'lib naturaga asoslangandir. Savrasov va lirik yo'nalishida ijod qilganlar tabiatni mavjudligi tirik, har kunga hayot tarzida ifodalashgan bo'lishsa, Shishkindan bu tipiklik tabiat – kuch, qudrat va shuhratdan iboratdir.

Birinchilar tabiatni ko'ngilga yaqinroq tasvirlashsa, Shishkin tabiatni parad «Portretlar»ni yaratadi. Shishkin o'z manzaralarida hech qachon tabiat burchaklarini tasvirlamaydi, balkim, kengqamrovli manzaraga murojaat qiladi. Uning asarlarida aniq rasm va yorig'lik soya rangtasvir ustidan, umumiy ta'surot esa ma'lum kayfiyat ustidan ustivorlik qiladi. Mana shu printsiplarga izchil amal qilgan musavvir asarlarida manzarada nimaiki Boqiy, o'zgarmas bo'lsa – ya'ni, o'zgaruvchan terakni emas, uzoq yashaydigan igna barglarni, o'zgaruvchan bahor va kuzni emas, balkim, uzoq davom etadigan yozni, juda kamdan-kam tong yoki o'zgarishlar ham uni mutlaqo qiziqtirmaydi. XIX asr oxiri rus manzara janrida ijod qilgan yirik musavvir I.I.Levitan(1860-1900) edi. Uni ijodi XIX asrning 80-90-yillarida kamol topadi va impressionizmga yaqin plener egallashda yangi qadam qo'yadi. Barcha lirik manzarachilar kabi Levitan ham tabiatdagi o'zgaruvchan holatlarni tasvirlashni xush ko'radi. Uning «Mart», «Oltin kuz» kabi asarlari bu yo'nalish taraqqiyotining yuksak bosqichlaridir. Ikala manzara ham qo'shimcha ko'k sariq-jigar ranglar o'zaro nisbatlariga qurilgan. Bir holda hali ranglar quvvatiga to'lmagan yengil shaffof bahor ranglari, ikkinchi holda nozik parishonlik kayfiyatidagi to'q rangdor kuz tabiatini tasvirlashda aniq olingan ranglar nisbati barchani bugun ham hammani hayratga solib kelmoqda. Musavvirlarning «Vladimirka» asari barcha tasvir vositalarini ma'lum kayfiyat uyg'onishiga qaratilganligini erkin misolidir, manzaraning dastlabki eskizi yorug' kumushsimon gamada ishlangan ma'lum bir tasviridan iborat edi. Vladimir yo'li bu Sibirga surgun yo'li ekanligi manzaraga nafaqat nom beradi, balkim, kartinani umumiy ko'rinishini ham o'zgartirib mutlaqo boshqacha kayfiyat uyg'otadi.

### 3.1. Kartina bajarishda asosiy rang munosabatlarni idrok qilish va tasvirlash.

Har qanday tasvir mayda qismlardan emas, yaxlitlikdan boshlanadi. Dastlab katta umumiy shakl topiladi. Keyin esa mayda bo'laklari ishlanadi. Shu munosabat bilan tasvirlash jaraeni qoidasi mavjud umumiydan mayda bo'laklarga bu yana umumlashtirishga. Manzara etyudini ishlash yaxlit asosiy munosabatlarni qo'rishdan manzaraning asosiy ob'ektlari (osmon, er, suv, old o'rta va olisdagi qo'rinishlari bilan) asaridagi rang farqlaridan boshlanadi. Manzaraning ob'ektlaridagi asosiy munosabatlarni to'gri olinishi keyingi rang qurilish, mayda bo'laklarni tasvirlashda ishni osonlashtiradi. Agarda asosiy rang munosabatlari noto'gri topilgan bo'lsa, reflekslar va ranglardagi nozik farqlar, mayda qismlarni qanchalik sinchiklab (astoydil) bajarilmasin, mazmunli tasvir xosil bo'lmaydi.

Plenerda boshlangich ishlar jaraenida kichik etyudlar (15*10 sm.) bajarish zarur.

Quyilmadagi keskin kontrastlar (tusli va rangdorlik) qo'rish taasurotlari bo'yicha taqqoslanadi. Birinchi navbatda old qo'rinishi munosabatlari oldidagi nisbati aniqlashtiradi. Voida bo'yicha kichik o'lchamdagi etyudlarda maydalangan qismlarni idroq etish mumkin emas. Esh rassom naturani aynan "qo'chirmasdan", balki yaxlit rang munosabatlarida tasvirlaydi.

Tus va rang munosabatlari metodi bilan etyudni bajarish aslida naturadagi ochiq togliq, intensiv va toq rang doglarni aniqlashdan boshalanadi. Ular oraliqdagi tus va rang doglarini kuchli jixatdan taqqoslanadi. Manzarada, masalan, quesh nuri bilan eritilgan yashil balandlik eng erug va rang bo'yicha erkin bo'lishi, toq tusda esa old qo'rinish.

Manzaraning umumiy rang munosabatlarini topish maksadida tlaba vazifani etarli darajada savodli uddalay olmasa qisqa vaqtli etyudlarni qo'p marta takrorlash zarur. Dastlab tasvirlash uchun uncha murakkab bo'lmagan epiq kenglikni (masalan qisman xovlili o'yni va xokazo), ob'ektlar bo'lib xizmat qilishi mumkin. Keyin vazifani biroz murakkablashtirib, bir necha ko'rinishda (old, o'rta va uzoq)

ega bo’lgan ochiq kenglikdagi manzarani tanlash zarur. Bu etyudlarda esa e’tiborni xavoiy perspektivaga, osmon rangi, manzaraning barcha ob’ektlarini noziq farqlari bo’yicha och – to’qligi va to’yingan ranglarining o’zgarishlariga qaratish kerak. Ularni barovar idroq qilishda manzarani barcha qo’rinishlarini taqqoslash yo’li bilan sezish mumkin.

Masalan, old qo’rinishdagi dare qirgoqini ikkinchi va yiroqdagi qo’rinishlari bilan bir vaqt o’zida osmonning suvdagi aksi bilan xam qieslanadi. Etyudning ranglar munosabatlari yaxlit belgilanmaguncha uning bir qismini tugatish mumkin emas. Xar bir etyud 30 daqikadan 1 soatgacha davom etadi.

**Eritilishning umumiy va rangli xolati.**

Manzara etyudida echiladigan muxim vazifa – turli ob – xavoda, kunning istagan vaqtini, eritilgan xolatini tasvirlardilar. Professional tilda buni umumiy tus va rang xolatini qo’rsatishga aytiladi. Xoxlagan etyudning rang qatori faqat narsalarning ranglaridagi tus va rang munosabatlariga mos bo’lmasligi kerak. Etyudning rang farqlari albatta naturaning eritilgan xolatini xisobga olib qurilishi kerak.

Bulutli kunda qo’katlar rangi ancha quruq (qoramtir) va kam to’yingan bo’ladi. Qosh qorayganda xamma narsalar to’qlashadi, qizil, zargaldoq va sariq ranglar to’yinganligi jixatdan xiralashadi, yashil bilan zangori rang esa faollashadi. Shuning uchun bunday xolatlarni xisobga olmasdan manzarani tasvirlab bo’lmaydi. Kunning istalgan vaqtida eki turli ob – xavo sharoitida tasvirlangan etyudlar, umumiy tus va rang jixatdan bir – biridan farq qilishni lozim.

“”Manzarada – deydi R. Falq, - asosiysi xavoiy muxitning rangli xolatidir”.

Manzara etyudining eritilishi xolatini o’rganish uchun bulutli, queshli kunda, ez va qishda aynan bir mavzuni juda foydali. Qator bajarilgan etyudlarni solishtirib, manzaraning turli xolatini jozibali xususiyatlarini sezish mumkin barcha etyudlarda eng erkin va ravshan doglar palitraning erqin to’yingan bo’eqlarida tasvirlangan.

**Manzara ob’ektlarida kolorit birligi va eritilish rangi.**

Manzarani munosabatlar metodi bilan tasvirlash jaraenida esh rassom tabiatning xaqiqiy bo'eqlarini tushunishga ularning asl rangini umumiy tusi bilan mosligini qo'rishda birdaniga erishmaydi. Tabiatdagi bo'eklarni noto'gri taxlil etish natijasida rassom rang va tus munosabatlarini adashtirib etyudni jozibali chiqishiga erisha olmaydi. Ayniqsa tajribasiz rassom eritilishining umumiy rangi ta'sirida o'zgargan ranglarni yaxshi sezmaydi.

Ertalabki kuesh barcha narsalarga va manzara ob'ektlariga pushti – sariq nozik rangni, kunduzgi kuesh esa – oltinsimon, kechkurungisi – tog sariq eki qizil rangni baxsh etadi. Tungi oy erugligi narsalar rangini qo'kimtir yashil tomonga o'zgartiradi. Elektr chirogida narsalar och – to'q sariqni, sham esa – to'q sariq bo'eqni xad'ya etadi. Demak, eritlitishning manbai ta'sirida bo'ladi.

Eppasiga bulutlar quyuni bilan qoplanib erugligi tarqatilgan osmonga narsaning shaxsiy rangi – qo'proq namoen bo'ladi. Bulutli kunning engil tekis erugligi narsalarning shaxsiy ranglaridagi xarakter va xususiyatlirini aniqlashga imkon tugdiradi.

Manzaraning turli eritilganlik xolatdagi etyudlarni bajarish uchun bulutsiz queshli kun, bulutli osmondagi quesh erugligi, kunbotar vaqt, bulutli kun, qosh – qoraygan paytlarni tanlash mumkin.

Mazmun jixatdan ancha murakkab va uzoq davomli manzara etyudlarini ishlashga o'tishdan oldin, naturaning umumiy ranglar munosabatini tasvirlashga bizga vaqti etyudlarni bajarish bilan, masalan, arralangan daraxt tanasining bir bo'ladi eki bir necha toshlar, osmondagi bulutlar to'plami kabilarni ishlash zarur.

Ranglar dogi o'z o'zidan narsa eki ob'ektning aniq shakllarisiz kerakli tasvirdan boshqa xech narsani ifodalamaydi.

"Tabiatni to'laqonli tasvirlash va uning go'zalligini qo'rsatish uchun – deydi G. Russo – daraxtlar erda mustaxkam tuzishi, ularning shoxlari esa oldinga intilishi qolgan qismi polotno ichida kirib ketgandek tuyulishi, xuddi tomoshabin daraxtni atrofida aylanib o'ta oladiganday tasavvur qilishi kerak. Xar bir bo'eq surtmasi shunchaki yuzaki qo'yilmasdan, xar bir surtma yaxlit bo'lishi va biron – bir narsani aniq ifodalashi kerak".

Etyudda aniq ob'ektlarni tasvirlash ichki naturadagi manzara va muxit detallaridagi asosiy rang munosabatlarini aniqlashdan boshlanadi. Keyin esa ob'ekt shakli, uning xajmi va xokazo astoydil ishlab chiqiladi. Bularning xammasi eritilishi umumiy kolorit xolatini to'gri xisobga olib rang bilan xal qilinadi.

Manzarani tasvirlashda tabiatni sinchiklab o'rganishni talab qiladi. Xar bir daraxt aloxida o'zining xarakterli tuzilishiga ega.

Tabiatni turli xolatlarida, qo'katlar bilan butalar xam xar – xil daraxt turlarini xarakterli xususiyatlarini rang bilan tasvirlashni o'rganish uchun naturadan juda qo'p etyudlar bajarish kerak. Manzaraning ob'ektlarini bo'eqlar orqali tasvirlash bilan barobarida qalam bilan ularning murakkab shaklini chizish xam zarur.

Manzarani aloxida ob'ektlarini va mayda bo'lak ishlanmalarida qaratilagn mashqlarni bajarish bilan bir qatorda ochiq xavoda natyurmortlar bajarishga yaxshi bo'ladi.

Yashil yaproqlar va qo'k osmon – bu ikki rang natyurmortning barcha ranglarni belgilaydi. Bunday natyurmortga misol tariqasida A.A. Plastovning "Ez" kartinasini qo'rish mumkin.

Bulutli ob – xavoda koloritni xarakterli xolatini A.A. Plastovning "O'rim" kartinasining natyurmort qismida qo'rish mumkin. Kartinadagi voqea bulutlar bilan qoplangan tush vaqtida sodir bo'lgan. Natyurmortdagi narsalarning erug – soyasi bir – biridan kam farqlanadi. Kechki eritish xolatidagi natyurmort rangtasviri misolida rassomni boshqa "Traktorchilarning kechki ovqati" asarida qo'rish mumkin. Narsalarning eritilgan qizil, to'q sariq ranglar bilan, soyali esa quyyuk toq ranglarda tasvirlangan. Kartinada keskin ranglar gammasi o'yini yaratilgan bo'lib, asar nixoyatda jozibali yaratilgan.

Manzarali rangtasvirning keyingi bosqichida qo'p seansli davomli etyud mashqlari bo'lib, ilgari o'zlashtirilgan nazariy qoidalarni eslash, amaliy qo'nikmalarni qo'llash xamda yangiliklarini o'zlashtirish kerak.

Uzoq vaqtli etyudlarda shakllar puxta ishlanishi bilan farqlanishi kerak. Ularni bajarish vaqti 2-4 soatdan (bir seansli) bir necha o'n soatgacha (qo'p

seansli), davom etishi mumkin. Qo’p seansli etyud queshda xam, bulutli ob – xavoda xam belgilangan bir vaqtida bajarilishi lozim.

Manzara mazmuni uning xaetiy mavzusi naturaning yaxlit qo’rinishi plastik – kompozitsiya munosabatlarida xam, koloritda xam asosiy aniqlash kompozitsiyaning ajralmas qismidir. Shuning uchun davomli etyud bajarish jaraenida kompozitsiya syujetini puxta o’ylash, taxlil etish va uni tasvirlash muximdir. Tasvirlash tekisligida ob’ektlar va narsalar joylashuvini mukammal tasavvur qilish zarur. Manzara ob’ektiga yaqinlashib eki uzoqlashib joyni xususiyatlarini o’rganish, qo’rish nuqtasini topish mumkin. Kompozitsiyada osmon bilan er va boshqa ob’ektlar orasidagi munosabatlarni aniqlash juda xam muximdir.

Ma’lumki narsalar katta masofada xajmliligini, relefligini eqotib siluetli tekislik xarakteriga ega bo’ladi. Old qo’rinishdagi narsalar ancha xajmli, soya-erugi kontrast bo’lib qo’rinadi. Yaqinda joylashgan yashil dala masofa uzoqlashgan sari yashil rangdor bo’egi asta – sekin moviyga o’tadi. Olisdagi to’q narsalar ochroq va qo’kimtir bo’lib qo’rinadi. Quesh nurida bulutlar va uzoqdagi qorli tog cho’qqilari xam qizil to’q sariq ranglarda kiradi.

Tuman, chang eqi tutun bilan to’yingan fazoda narsalarning siluet aniqligi pasayadi. Toza xavoda masofadagi shaklning aniq tashqi qo’rinishi ozgina o’zgaradi.

Old qo’rinishlarni tasvirlashda narsalarning shaxsiy ranglari uzoqdagilarda esa shartli ranglar narsalarni uzoqlashtiradi va aksincha, narsalarning rangi ularni xuddi old ko’rinishda biron – bir narsani “Yaqinlashtirish zaruriyatini bo’lsa ancha lokallik (narsa) moxiyatini rangga qaratish lozim”. Etyudning qandaydir qismini “uzoqlashtirish”  zaruriyati tugilsa unda shartli ranglarni qo’llash qifoyya.

Uzoq qo’rinishdagi och – to’qligi va rang tusini to’gri aniqlash uchun xammasini yaxlit qo’rib mayda qismlarga e’tibor bermasdan qarash muximdir. Faqat shundagina old va o’rta va olis qo’rinishdagi rang farqlarini to’gri aniqlab tasvirlash mumkin.

“Xavoni tasvirlashda, - deydi A.A. Deyneka – ayniqsa old qo’rinishni uzoqdagiga nisbatan munosabatlarni aniqlab va to’gri etkazishi muximdir, shundaygina rangtasvir o’z echimini topadi, asarda xavoiy muxit xolatini to’gri tasvirlashga erishadi”.

Plener rangtasvirining boshlangich ta’lim bosqichida qiska vaqtli va ijod davomli etyudlar bajariladi.

Keyinchalik esa manzara etyudlari ishlash jaraenida tabiatning nozik xolatini tasvirlashga xarakat qilish zarur.

Tasvirlash mobaynida rassom tabiatni nozik o’zgarishlarini kuzatar ekan o’z xissietini bo’lajak asarda qo’rsatishga xarakat qiladi.

Demak, naturada asosiy rang doglarni umummiy va katta rang munosabatlarini tugri topish va moxirona tasvirlay olish rangtasvirining muxim asosidir. Shular asosda manzara ob’ektlarining mayda bo’laklarining nozik farqlanishlari amalga oshiriladi. Tabiat bo’eqlari xaddan tashqari rang – barang o’t – qo’kat va daraxtlar yashil rangda. Lekin tabiatdagi bu ranglar turli – tuman tushlarga ega. O’tloqda o’saetgan maysalar, kuzgi bugdoy ekinlari, sabzavotlar, daraxtlarni xar xil turlari xammasi xam o’ziga xos yashil rangdagi tusda ega. Tabiat o’ta nozik, ana shu o’ziga xos xususiyatlarni manzara etyudida tasvirlay olish rassomdan juda katta bilim, malaka va tinmay izlanishni talab etadi.

### 3.2 Iliq va sovuq ranglar hamda ularning qo’llanilishi.

Rangtasvirishlashdauningqonun-qoidalarini, usulvatexnologiyasinio'rganishmuhimahamiyatgaegavazifalardandirdesakxatobo'lmaydi. Shunday zarur shartlar qatoriga axromatik va xromatik ranglar haqidagi bilimlar ham kirishi tabiiydir.

Ko'zimiz ko'ra oladigan tabiatdagi hamma ranglarni shartli ravishda ikkiga: axromatik va xromatik ranglarga bo'lish mumkin. Oqdan to'q qoragacha bo'lgan ranglar axromatik ranglarga (oq, kul rang, qoramtir, qora, to'q qora) qolganlari esa xromatik (qizil, sariq, ko'k va hokazo) ranglarga kiradi.

Xromatik ranglar o'z navbatida, shartli ravishda yana ikkiga, issiq va sovuq ranglarga bo'linadi. Issiq ranglarga olov, quyosh, qizigan narsalarning rangini eslatuvchi qizil, sariq, zarg'aldoq ranglar kiradi. Muz, havo, suvlarning rangini eslatuvchi ko'k, moviy, binafsha ranglar sovuq ranglarga kiradi. Yashil va binafsha ranglar goh issiq, goh sovuq ranglarga kirishi mumkin. Chunki yashil rang sariq va ko'k ranglarning aralashmasidandir. Binafsha rang esa qizil va ko'k ranglarning aralashmasidan hosil bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, Bu ranglar issiq va sovuq ranglarning aralashmasidan hosil bo'lgan. Aralashtirishda issiq rang miqdori sovuq rang miqdoriga nisbatan ko'proq bo'lsa, hosil bo'lgan rang issiq rang qatoriga, sovuq rang miqdori ko'proq bo'lsa, sovuq ranglar qatoriga o'tish mumkin. Xuddi shunday binafsha rangda qizil rang ko'proq bo'lsa issiq, ko'k rang ko'proq bo'lsa, sovuq ranglar qatoriga kiradi. Demak o'quv mashg'ulotida rang-tasvirni ishlashda qo'yilmadagi narsa va buyumlarning yorug'-soya nisbatlari, shuningdek, rang nisbatlarini ham ochib aniq ko'rsatish muhim ahamiyatga ega.

Ranglarning tabiiyliginitasvirda to'g'ri bajarish anchaqiyin ish hisoblanadi. Bungajiddiy mehnat, nozik did va zo'rmushohada orqali erishish mumkin. Ayniqsa

natyurmortdagi narsalarning och- to'qlik darajalarini farqlashga, undagi tus birligini tushunishga o'rga nish uchun natyurmortni bitta rangda tasvirlash katta ahamiyatga ega. Bu usulda rasm ishlash keyinchalik qiyin natyurmortlarning rangli tasvirini bajarishga o'tishni ancha osonlashtiradi. Bir rangda yozish usuli «grizayl» deb ataladi.

Grizayl usulida rasm ishlash turli ranglar vositasida ish usuliga o'tish uchun tayyorgarlik bosqichi bo'lib, unda mo'yqalamni ishlatish yo'llari va akvarel bo'yoqlarining xususiyatlarini o'rganish uchun imkoniyat yaratadi. Bu texnika bilan bir nechta natyurmortlarni tasvirlab o'rgangandan so'ng, barcha rang xillari bilan ham natyurmort ishlash ancha oson bo'ladi.

Natyurmortlar ko'pincha xonalarga qo'yib ishlanadi. Ammo ba'zan uni tabiat qo'ynida tashkil qilib tasvirlashga ham to'g'ri keladi. Shunday paytda natyurmortni ishlashdan avval uning rang xususiyatlarini tahlil qilib, tushunib olish muhimdir. Chunki xona ichiga qo'yilgan natyurmortga derazadan tushayotgan nur narsalarning yorug' qismida sovuq ranglarni beradi. Buyumlardan tushayotgan soyalar esa aksincha, iliq, issiq bo'lib ko'rinadi. Ochiq havodagi, tashqaridagi chizilayotgan narsalar buning aksidir, ularning soyasi sovuq, yorug' qismi esa iliq bo'lib ko'rinishi mumkin. Ana shunday holatlarni diqqat bilan kuzatib, so'ng e'tibor bilan tasvirlash ish sifatining yaxshi bo'lishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Ma'lumki ranglarni ko'rish va idrok etish qobiliyati asta-sekin mashqlar orqali shakllanadi. Bunda akvarel bo'yoqlar nomlarini aniq bilib olish va ularni o'z o'rnida jo'yali qo'llash muhimdir.

Akvarel bo'yoqlari 24-16 xil rangli to'plamlar holida bo'ladi. Ularni ishga tayyorlash vaqtida har birining ustiga yozib qo'yilgan yorlig'ini asta ko'chirib olib, bo'yoq solingan plastmassa idishchaning tagiga yopishtirib qo'yish va nomlarini eslab qolish kerak. Ular quyidagicha tartibda bo'lishi mumkin. Ya'ni: limon rang qadimiy, sariq qadimiy, och oxra, tabiiy siyena, oltinsimon sariq, zarg'aldoq qadimiy, qizil oxra, kuydirilgan siyena, och qizil, guldor, qizil kraplak. Karmin (erkin qizil), binafsha kraplak, ultramarin, ko'k kobalt, havo rang, zumrad yashil,

yashil permanent, sabza (yashil), tabiiy umbra (to'q jigar rang), jigar rang mars (och), kuydirilgan umbra (jigar rang), sepiya (chiroyli to'q jigar rang), qora.

Tabaiatdagi narsalarning aniq rangini belgilab ko'rsatadigan tayyor bo'yoqlar mavjud emas. Ammo yetuk rassom ranglarning uzaro ta'siri va ko'rinish holatlarini idrok etib ularning xususiyatlarini hisobga olgan holda har qanday narsani ham aks ettira oladi.. Tasvirda shunday joziba va hayotiy haqiqatga erishish uchun rassomga ranglar nisbatini bilish, ranglar orasida qandaydir bitta rangning turli xil tovlanishini hisobga olib ishlata olishga yordam bergan. Masalan, olov rang qizilni kuchliroq «yal-yal» yonadigan qilib tasvirlash uchun shu rang atrofidagi narsalarning soyasini ko'kimtir havo rang, yashil, zangori tuslarda beriladi. Tasvir bilan chizilayotgan narsa, holat o'rtasida to'la o'xshashlik bo'lishi uchun ularning rang nisbatlarida ham o'xshashlik bo'lishi shart. Bunga erishish uchun rangshunoslik fanining asoslarini chuqur o'rganish va amaliy ish jarayonda bu masalalarga qayta-qayta murojaat qilish kerak. Har xil bo'yoqlar bilan (akvarel, guash, moybo'yoq) natyurmortlarni tasvirlash uchu nyuqorida qayd etilgan tajribalarni o'tkazib ko'rish, bo'yoqlarning texnologiyasi xususiyatlarini yaxshi bilish, ularni ishlatish usullarini o'zlashtirish uchun ko'plab mashqlar bajarish tavsiya etiladi.

Guash bo'yog'i akvarel bo'yog'ining tamoman aksi bo'lib, u kabi tiniq, jarangdor tus bermaydi. Ranglari yorug'likni yutganligi sababli uning tagidagi qog'oz ko'rinib, sezilib turmaydi. Tarkibi esa akvarelniki singari – bo'yoq kukuni va uni bog'lovchi moddalardan iborat. Ammo ular maxsus yog'och yelimi bilan mtadil nisbatlarda aralashtirilgan bo'ladi. Guash bo'yog'ining yana bir muhim jihati uning oq bo'yoq bilan aralashtirib ishlatilishidir. Shuning uchun uning ranglari unchalik jarangdorlik kasb etmaydi. Bo'yoqni ishlatish uchun mo'yqalamlar ham maxsus tanlanib olinadi va ular juda yumshoq bo'lmasligi, bir oz dag'alroq bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Tasvir ishlanadigan sath, ya'ni qog'oz yoki karton ham silliq bo'lmagani yaxshi. Uning yuzasi iloji boricha yelimli qoplama (grunt) bilan ishlov berilgan bo'lishi zarur. Shunda uning sathiga guash bo'yog'ini yaxshi surtish mumkin bo'ladi. Guash ko'pincha grafik ishlarni, bezaklarni, plakatlarni ishlashda

va qisman rang-tasvirlarni bajarishda foydalaniladigan , suv qo'shib ishlatiladigan, tez quriydigan bo'yoqdir. U bilan tasvirlar bajarishning murakkabligi shundaki, bo'yoq surtilgan paytda to'q, qurigandan keyin esa ochlashib ko'rinishidir. Shu jihatini hisobga olib turilmasa, ranglar orasidagi muvofiqlikni ushlab turish ancha qiyin kechadi. Buning uchun odatda har bir surtiladigan asosiy ranglar alohida-alohida maxsus idishchalarda tayyorlanib olinib, so'ng unga bir oz boshqa qo'shimchalar aralashtirib tasvir ishlanadi. Ranglarni ishlatishda, uning to'q-ochligi, rang tuslarining qanday topilganini doimo tekshirib, bilib turish uchun bir bo'lak qog'ozga tayyorlangan aralashmani surtib aniqlab, so'ng qo'llansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Guash bo'yog'ida juda ko'p o'tmish rassomlari ham asarlar yaratganliklari ma'lum. Ularning ajoyib-ajoyib natyurmort, manzara, teatr bezaklari, portret, plakatlari jahon tasviriy san'ati xazinasidan o'rin olgan. Ammo shunisi borki, bu nozik, saqlanishi ancha qiyin bo'lgan ishlarning ayrimlari, ayniqsa quyuq qilib ishlanganlarining bo'yoqlari o'chib, to'kilib ta'mir talab bo'lib qolganligi sir emas. Guash bo'yog'ida tasvirlarni bajarganda iloji boricha har bir rang tusi uchun alohida-alohida mo'yqalam tutgan ma'qul. Shunda ranglarni tiniq va toza, jozibali chiqishiga erishiladi. Mo'yqalamlarning turli o'lchamlardagisi va yumaloq hamda yapaloq ko'rinishdagilaridan foydalaniladi. Ayniqsa, yapaloq mo'yqalam bezak ishlarida hamda tezkor ranglavhalarni ishlashda juda qulaydir. Guash bo'yog'ida ranglavha va ayniqsa portretlar hamda odam tana qismlarini tasvirlash, nozik rang tovlanishlarini berish qiyin ishdir. Buning uchun ancha muncha mahorat, bilim, tajriba kerak bo'ladi. Tasvir ishlashning yo'l-yo'rig'i, usullarini puxta egallash esa ko'p amaliy mashg'ulotlarni talab etadigan jarayondir.

Katta-katta monumental asarlarning eskizlari hamda kompozisiya losihalarini, bayram munosabati bilan tayyorlanadigan suratlarni ham guashda bajarish qulaydir. U bilan keng qamrovli, mahobatli tasvirlar tez ishlanadi.

Rangtasvir ustalarining asarlarini kuzatar ekanmiz, ularning har biri texnologiyasi hamda uslubi jihatidan naqadar rang-barang ekanligini ko'ramiz va rassomlar mahoratiga tan beramiz. Chunki ijodkorlar bo'yoqning tasvir

imkoniyatlarini ustalik bilan qo'llaganlar. Asarlarning biri quyuq bo'yoq qatlamidan foydalanib ishlangan bo'lsa, boshqasi esa juda nozik, yupqa qatlamda bajarilgan. Shunday asarlar ham borki, ular murakkab aralash texnikada bajarilgan. Ya'ni ham akvarel, ham guash texnalogiyasi ustalik bilan qo'llangan. Bunday mahoratli ishlangan asarlar qatoriga rus rassomlari V. Serov, K. Yuon, V. Kustodiyevlarning ijod namunalarini qo'shishimiz mumkin. Shunisi ham qiziqarliki, ayrim rassomlar akvarel bo'yog'ida yaratgan asarlarida guashning faqat oqini ishlatganlar va bu yaxshi samara berganligi ko'rinib turadi. Bunday asarlarga S. Gerasimov ijodiga mansub ishlarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin.

Guash bo'yog'ining keyingi paytda yangi kashf etilgan turi ham mavjud bo'lib, uning nomi «fluoressentli guash» deb ataladi. Uning ijobiy tomoni sun'iy nur tushirilganda yorqinlik kasb etib, «yal-yal» yonib ko'rinishidir. Chunki uning ximiyaviy asoslari ultrabinafsha, binafsha, ko'k, yashil nurlardan g'ayrioddiy yorqin va tabiatdagidan ikki-uch marta kuchli rangda tovlanib ko'rinadi. Shu sababdan bunday bo'yoq turi teatr bezakchiligida keng qo'llanmoqda. Uning ta'sirchan yarqirab ko'rinishi uchun odatda kvars lampalarni nuridan ham foydalanish bo'lmoqda.

### 3.3. Manzara janrida kompozitsiyasining yaratilishi.

O'quv-mashq ishlarni bajarishda, ayniqsa manzaralarni ishlashda guash bo'yog'idan foydalanish juda ham qo'l keladi. Uni moybo'yoq tasvirlar ishlashdan avval o'rganilsa maqsadga muvofiq keladi. Shuningdek, turli kompozisiyalarning eskizlarini o'quv-mashq namunalarini guash texnikasida bajarish qulaydir. U bilan katta-katta sathlarni yaxlit qilib bo'yash, tez ishlash mumkin.

Qalamtasvir yoki rangtasvir asarining kompozisiyasi «struktura» siga aloqador tushuncha mohiyatini qisqacha tarzda ko'rib chiqaylik. Buning uchun kompozisiyaning son bog'liqligi munosabatlarini birma-bir keltirib o'taylik: bu chizilayotgan narsaning absolyut o'lchamining uning asliga nisbati, chizilayotgan o'lcham tomonlarining o'zaro nisbatlari, predmetlarning masshtabi, ular orasidagi masofalar, narsalarning qanday burilib turganligi, ufq sathi darajasi, yorug'lik manbaining holati, soya-yorug'ning taqsimlanishi, tusi, soya va yorug'ning nisbiy muvozanati, shuningdek asosiy rang dog'lari muvozanati, tasvirlanayotgan ob'yektlar bo'laklarining o'zaro joylashishi, qiyofalar va fonga nisbatan «kontrast»lar farqi (rang, soya-yorug', o'lcham) kompozisiya unsurlarining fazodagi ko'rinishini tashkil qilish (metr, ritm) va boshqalar.

Yuqorida keltirib o'tilganlarning barchasi predmetlarning sondagi belgilaridir. Ularni o'lchash va sanab ko'rsatish mumkin. Kompozisiyada qancha narsa ishtirok etayotganini aniqlash imkoniyati aniq. Shunday qilib ko'rish orqali qabul qilish mumkin bo'lgan belgilarni kompozisiyaning vositalari deb atashimiz mumkin. Bu asosda esa rassom ularning bevosita yordamida o'z fikrini ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Xuddi musiqa yaratayotgan kompozitor notalardan foydalangani singari rassom ham yuqorida sanab o'tilgan vositalardan foydalanib,

o'z asari g'oyasini yuzaga chiqaradi, tasvirlarda ko'rsatib beradi. Sondagi kompozisiya sifatini ta'minlovchi, fikrni to'liq ifoda etishga xizmat qiluvchi belgilarni jamlovchi holat mazmunikompozisiya tamoyillari deyiladi. Ular: yaxlitlik, mutanosiblik, o'lchamlar muvofiqligi muvozanat, birlik va uzviylik dir. bular orqali rassom ishning sifat darajasini ta'minlaydi.Natijada asar kompozisiyasi yuzaki emas, balki chuqur ma'no kasb etadi, tafakkurlash natijasida tushuniladi. Rassom kompozisiya tamoyillarini ustalik bilan qo'llab, har tomonlamayutuqqa erishadi, kompozisiya bekamu-ko'st bo'ladi. Ma'lumki, kompozisiya tamoyillari uch xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ular quyidagicha: frontal, hajm-fazoviy va chuqurlik-fazoviy kabilardan iborat. Bulardan birinchisining belgisi – kompozisiyaning ikkita koordinat orqali (vertikal va gorizontal) riaojlanishini bildiradi.

Unda uchinchi koordinat chuqurlik qolgan ikkisiga bo'ysungan holatda ishtirok etadi. Bunday kompozisiya amaliy – bezak kompozisiyalarida ko'p qo'llaniladi, hajm-fazoviy kompozisiyalarida esa shakllar uch o'lchamli holatlarda yaratiladi. Ular har tomondan turib, aylanib ko'rishga mo'ljallangan bo'lib, haykaltaroshlikda qo'llanadi. Chuqurlik-fazoviy kompozisiya predmetlarni kartina teksligida tasvir etishda qo'llanadi va dastgohli rangtasvirda foydalaniladi.

Tarixdan ma'lumki o'tmishning ulug' rassomlari kompozisiya masalalariga juda jiddiy yondoshganlar va o'z asarlarini yaratishda umumqoida bo'lib qolgan tamoyillarga amal qilganlar. Kompozisiyaning «vertikal», «gorizontal», «doiraviy», «kvadrat», «burchak» va boshqa ko'rinishlarini qo'llab, yuksak natijalarga, go'zal ifodaviylikka erishganlar. «Oltin kesim» kompozisiya usulidan unumli foydalanish har sohada qo'l kelgani ham ma'lum.

Kompozisiya tuzishga mohir bo'lgan va uni o'z asarlarida mukammal darajaga olib kelgan mo'yqalam ustalari ko'p, ularga misol qilib quyidagilarni qisman atab o'tsak o'rinli bo'ladi. Bunday o'tmish tasviriy san'ati ustalari: Leonardo da Vinchi. Mikelanjelo, A. Dyurer, J. D. Engr, P. Rubins, Rafael, Tintoretto, A. Ivanov, K. Bryullov, I.YE. Repin, YA. Mateyko va boshqalardir.

O'zbek rassomlaridan tasviriy san'atning turli tur va janrlarida ijod qilgan va hozirgi paytda ajoyib asarlar yaratib kelayotgan musavvirlardan nomlarini ko'rsatib o'tishimiz mumkin. U. Tansiqboyev, I. Ikromov, Z. Inag'omov, CH. Axmarov, X. Husniddinxo'jayev, A. Abdullayev, R. Axmedov, R. Choriyev, I. Jabborov, A. Boymatov, J. Umarbekov, SH. Abdurashidov, A. Mirzayev, S. Abdullayev, A. Ikromjonov, B. Jalolov, A. Nuritdinov, O. G'oziyev va boshqa ko'plab ijodkorlarni bemalol kompozisiya ustalari deb atashimiz, ularning asarlarini ijobiy jihatlarini tahlil qilib, ibrat olishimiz mumkin, bu albatta o'quv-mashqlarni bajarishda nazariy asos vazifasini o'taydi.

Ma'lumki tasviriy san'atni o'rgatish tajribasi, ayniqsa, kompozisiya masalalarini hal etish jarayonida interyer, fazo, atrof-muhit va vaqt faktorlarini to'g'ri ochib berish uning ifodaviyligini ta'minlashda kata ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Ma'lumki, interyer ko'pchilik kompozisiyalarning muhim qismi sifatida foydalaniladi. U ayniqsa, natyurmortlarni ishlashda ko'p qo'llanadi. Keng qamrovli mazmun mohiyatga ega bo'lgan natyurmort kompozisiya asarlarida va shuningdek o'quv mashqlarida ham xona ichi tasvirlanadi. Unda esa albatta kompozisiyaning barcha qonun-qoidalari va amallariga rioya qilinishi taqoza etiladi. Bunda uning chiziqli perspektiva qurilishi, fazoviy holatlari, atrof-muhit ko'rinishi realistik tarzda, metodik izchillikdan bilimdonlik bilan aks ettirilishi lozim. Agar kompozisiyaning biror- bir unsuri e'tiborsiz qoldirilsa, unda umum tasviriy jixatlari bo'sh, ta'sirsiz chiqib qolishi mumkin. Masalan, natyurmort kompozisiyalaridan atrof-muhit, fazo holatlari muhim hisoblanib, ularni ifodali tasvirlash orqali mavzuni belgilovchi zamonaviylik hamda vaqtni, asar ishlangan paytdagi fasl xususiyatlariga dovr aniq, tiniq ko'rsatib berishi mumkin. Mazmuni chuqUr va qiziqarli chiqishi natyurmort qo'yilib tasviri etilayotgan xona ichi ya'ni interyerning qanday yoritilganligi, undagi buyumlarning qanday joylashganligiga ham bog'liqdir. Chunki ular orqali kompozisiya g'oyasini yanada teranroq ochib berish imkoniyati tug'iladi. O'sha har biri o'zicha muhim bo'lgan narsalar orqali vaqt mezonlarini, davr xususiyatlarini ham to'liq badiiy tarzda ifodalash mumkin. Odam

qiyofasini interyerda aks ettiradigan kompozisiyalarda ham vaqt, fazoviy holatlar, atrof-muhit tasviri orqali ko'rsatib beriladi. Chunki ular kompozisiyadagi rangdorlik tus-rang munosabatlarini, ta'sirchanlik va mazmunni belgilovchi komponentlar sifatida yuzaga chiqadi. Ma'lumki o'quv mashqlaridan, kompozisiya chizish jarayonlarida bu muhim omillar aslo unutilmasligi lozim.

Chunki ular kompozisiyaning o'lchamini, tomonlarining rang va to'q - ochlik, demakki, tus munosabatlarini, yaxlitlik va muvozanatlarini belgilab, muallif o'z oldiga qo'ygan g'oyatasvirini yuzaga chiqarishda yordam beradi. Mazmunning tushunarli, lo'nda, qiziqarlichiqishida xizmat qiladi.

Xona ichini kompozisiyaning bir komponenti sifatida tasvirlash ham oson emas. U ko'pincha tasvir etilayotgan voqelikning yordamchi bir foni vazifasini o'tasada, unga muhim bo'lak sifatida yondoshilishi kerak. Masalani, interyerni chiziqli perspektiva holati to'g'ri topilmas ekan kompozisiyaning fazo viy o'lchamlari va ifodaviyligining haqqoniy aks etishi mumkin bo'lmay qoladi. O'z navbatida atrof-muhit ham kompozisiyaning umumiy g'oyaviy mazmunini belgilovchi unsurlardan biri hisoblanadi.

Yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlardan shu narsa ayon bo'ladiki, demak – interyer, fazo, atrof-muhit va vaqt kompozisiyasining mazmunli chiqishida muhim rol o'ynovchi, o'zaro bir-biri bilan bog'liq holda tasvirlanadigan zarur kompozisiyaning faktorlari ekan. Shu sababdan ularning tasviriga katta e'tibor bilan yondashish zarur. Interyerda aks ettiriladigan har turli kompozisiyalarni bajarishdan avval albatta ko'plab yordamchi eskizlar, qoralama-lafha suratlar ishlanishi kerak.

**3.5. Manzarani akvarelda tasvirlash texnologiyasi va usullari.**

O'rta Osiyoda akavrelda kitoblarni chiroyli qilib bezash maqsadida qo'llanildi. O'rta Osiyo rassomlari ichida, ayniqsa, Kamoliddin Behzod kitoblarga akvarel bilan miniatyura hamda illyustrasiyalar ishlashda shuxrat qozondi. XIX asrning oxirlarida akvarelda I.YE.Repin, V.A. Serov, M.A.Vrubel, kabi rassomlari o'z asarlarida yangicha sifatlarini namoyish qildi. Rus tasviriy san'ati namoyondalari A.M.Grasimov, S.V.Gerasimov, O.G.Vereyskiy, Kukrinskiylar N.N.Volkov, YU.I.Neprensev va boshqalar ham akvarelda ko'plab qiziqarli asarlar yaratdilar. Ular yaratgan asarlarning ko'pchiligini kitoblarga ishlangan illyustrasiyalar tashkil etadi. O'zbekistonda esa akvarelda ishlash san'atining rivojini B.Hamdamiy, O'.Tansiqboyev, G. Shevyakov, G.Siganov, K. Cheprakov va ayniqsa CH. Ahmarovning ijodida ko'rish mumkin.

Akvarel bilan ishlashusullarining murakkablashuvi, takomillashuvi uningturlarini ko'payishiga vaxilma – xillashuviga olib keldi. Hozir akvarelningbir qancha turlari mavjud.

Chunonchi qattiq, yumshoq va xamirsimon xoldagi akvarellar. Bu bo'yoqlar badiiy bilim yurtlarida, ayniqsa amaliy va dekorativ san'at o'kuv yurtlarida kompozisiyalar, eskizlar tuzishda qo'llaniladi. Akvarel bo'yoqlari ikki qismdan: bog'lovchi element hamda bo'yoq kukinidan tarkib topadi. Bog'lovchi emulsiya

tayyorlanadigan moddalarni tanlashda bo'yoq rangini o'zgartirmaydigan, qog'ozga surtilganda tekis yotadiganlaridan foydalanadi.

Bog'lovchi moddalar asosan gummi arabika, olcha, olxo'ri va boshqa daraxtlarning shiralaridan tayyorlanadi. Daraxt shirasidan, masalan, olcha shirasidan juda osonlik bilan eritma tay.rlanadi. Shuningdek, bo'yoqning tez-qotib qolmasligi, pishiqligini va suvda eruvchanligini oshirish uchun unga asal, glisirin, dekstrinlar qo'shiladi. Bog'lovchi modda tayyorlanayotganda har bir element ko'rsatilgan miqdorda olinishi lozim. Har bir akvarel uchun bog'lovchi emulsiya turli miqdorda tayyorlanadi.Taxtacha ko'rinishdagi akvarel uchun emulsiya shiraning dekstrining suvdagi eritmasi meva shakari, ho'kiz o'tidan tayyorlanadigan aralashmadan iborat bo'ladi. Dastavval shiraning hamda dekstrining suvdagi eritmasi tayyorlanadi.

Meva shakari suv bilan aralashtirilib sirobsimon eritma hosil qilinadi. Ana shu uch xil eritma birgalikda to'xtovsiz aralashtiriladi. Hamda unga o'tdan tayyorlangan aralashma va fenaldan keraplicha tomiziladi. Chinni idishlardagi yumshoq akvarel uchun emulsiya tayyorlashda esa yuqoridagi moddalar ko'proq miqdorda oshrib meva shakari o'rniga asalari mo'mi va glisirin qo'shiladi.

Tyubiklarda chiqariladigan akvarel tarkibidagi bog'lovchi elementining ko'pchilik qismini asal tashkil etadi.Glisirin va shira ozroq miqdorda qo'shiladi.

Akvarel tayyorlashda qo'llaniladigan bo'yoq kukunlari tabiiy yoki sun'iy kukunlar bo'lishi mumkin. Ayrimlari o'simliklar yoki hayvonlarda o'raydigan pigmentlardan masalan , jigar rang , qarminli bo'yoqlardan tayyorlanadi. Bo'yoq kukunlarini tanlashda va tayyorlashda ularning tiniqligiga, bir-biriga yaxshi aralashishiga e'tibor berish lozim. Masalan, qo'yidagi bo'yoq kukunlardan foydalanish tavsiya etiladi. Sariq kukunlar tabiy,jigar, rang, sariqmars, zarg'aldoq mars va hakozolar.

Qizil kukunlar: qizil tusli mars, qirmizi.

Binafsha: binafsha tusagi kukun.

Yashil kukunlar: zumrad rang, yashil rangli ranglar.

Zangori: zangori laklar.

Jigarrangli kukunlar : kuydirilgan jigar rang, jigar rang mars.

Qora kukunlar : -uzumdan olinadi.

Akvarel tayyolash uchun bo'yoq moddasi tayyor emulsiyaga aralashtiraladi tosh plita yoki mahsus xovonchada yaxshilab ishlanadi. Agarda sinash uchun olingan bo'yoq suvda yaxshi erishsa, aralashtirish hamda ishlov berish uchun tayyor bo'lgan xisoblanadi. Shuni esda tutish lozimki, qo'yilgan akvarel bo'yog'i qurilganidan keyin o'z rangini biroz o'zgartirib olishadi. Bunga bo'yoq qavatidagi suvning bug'lanishi, qog'ozga singishi ta'sir etadi.

Endi akvarel, tush va ularni ishlatishda qo'llaniladigan ba'zi qurol va vositalar haqida to'xtalib o'tamiz:

1. Bir akvarel mo'yqalamda oson olinishi, suvda yaxshi eriydigan bo'lishi kerak. Akvarel boshqa bo'yoqlardan qog'ozga yubqa qalam tarzida o'tishi tekis, silliq surkalishi, qo'yilib va bir joyga qatlam tarzida yig'ilib qolmasligi bilan ajralib turadi. Akvarelga ko'p vaqt suv tegmasa,xaddan tashqari qUzbekiston Respublikasiqshab ketib, uni ishlatish qiyin bo'lib qoladi. Shuning uchun chinni idishlar va tyubiklardagi akvarelni qorong'u va slqin joylarda saqlash lozim. Agar tyubikdagi akvarel qotib qolsa tyubikka mris bilan suv yuborish yoki uni suvli idishga biror soat solib qo'yish tavsiya etiladi. «Leningrad» markali akvarel sifatli akvarellardan xisoblanadi va u plastmassa idishlarda ishlab chiqariladi. Unda bo'yoqlarning 24 hili mavjud bo'lib, plastmassadan tayyorlangan palitra ham joylashtirilgan.

2.Tush asosan yozish-chizish, bezak va boshqa ishlarda kenqo'llaniladi. Ularning xillari juda ko'p. Tushlar suyuq holda shisha idishlarda va taxtacha hamda qalamcha shaklida qattiq holatda ishlab chiqariladi.

Kerakli tushlar maxsus idishlarda suyultiriladi. Ulardan axromatik ranglarning har xil tuslari xosil qilinadi. Tushni juda quyuq ishlatilmaslik lozim.

Ular etyudlar uchun muljallangan bo'lib, 20-30 donasi kerakli o'lchamda bir-birlariga yelimlab qo'yilgan bo'ladi. Qog'ozlarni bir-birlaridan ajratib olishda birorta uchi o'tkirroq asbobdan foydalaniladi. Orqasiga qo'yilgan karton esa uni g'ijim bo'lishidan asraydi.

3. «Stirator» bittasi kattaroq, ikkinchisi kichikroq o'lchamga ega bo'lgan va bir-birini ichiga kirib turadigan ikkita ramkadan iborat ishlatishda qo'llangan qog'oz ikkala ramka orasiga qo'yilib siqib jipslashtiriladi. Stirator bundan tashqari ramka va planshetdan iborat bo'lishi ham mumkin. Bunday stirator ikki oyoqli qilib yasaladi. Qog'oz stiratorga tortilganidan keyin uni tizza ustiga g'o'ygan holda ishlatish mumkin. Shuningdek stirator oyog'siz holda ishlatilganda esa mahsustutqichga o'rnatiladi. Stiratorga tortiladigan qog'oz oldin suvga ho'llab olinadi. Qog'ozni ho'llash uchun yumshoq lattadan foydalaniladi. Burchaklarida 1,5-2 smgacha joy quruq qoldiriladi. Qog'ozni ikki tomoni ham xuddi shu zaylda qo'llaniladi, so'ng ramkaga tortilgan qog'oz o'zgarmas temperaturali joyiga qo'yib quritiladi. Stirator asliga qarab rasm ishlashda va manzaralarni tasvirlashda qulaydir.

4. Planshet tasviriy san'at darslarida keng qo'llaniladi. Planshetga qog'oz tortishida uning to'rttala tomoni 1,5-2 sm buklanadi. Qog'ozning teskari tomoni jiqqa ho'l latta suvini o'ziga shishib olguncha surtiladi. Chetga qayrilgan burchaklari eng quruqligicha qondiriladi. So'ngra qog'ozning old tomoni aylantirib g'o'yiladi va u ham chetki tomonlariga tekkizmasdan ho'llanadi. Undan keyin burchagidan bir tomoni, so'ngraqaramaqqarshi turgan tomoni bosib tortilishi lozim. Qolgan ikki tomoni ham xuddi shunday diogonal bo'yicha yelimlanadi yoki knopka bilan qistiriladi. Qirralariesabarmoqyordamidatekisqilibyopishtiribchiqiladi. Yelimlangan tomonlarida xech qanday tirishgan va qabariq joylar bo'lmasligi lozim. Qo'l planshet mo"tadil temperaturali joyga qo'yib quritiladi. Shundagina u ishga yaroqli bo'ladi.

5. Yig'ma qopchiq ham etyudlar ishlashda ekskursiyalarga chiqqanda juda as qotadi. Uni brezent matodan ixchamgina qilib tikib olish mumkin kerakli jixozlarni yig'ma qopchiqqa tartib bilan joylashtirish lozim. Uning yuqori qismiga tasmalar tikib qog'oznimaxkamlab qo'yish kerak. Pastki qismiga esa xar-xil o'lchamdagi cho'ntaklar tikiladi. Cho'ntaklarga esa maxsus idish, katta akvarel va xakozolar solib olinadi. Materialni tikayotganda orasiga karton bo'laklarini kerakli o'lchamlarda qo'yish tavsiya etiladi Qo'yilgan karton bo'laklar qog'ozlarni buklanib qolishidan saqlaydi.

6. Mo'yqalamlar. Akvarel bilan ishlayotganda foydalanish lozim , mo'yqalamlar ikki xil bo'lib, ularning bir xillari moyli bo'yoqlarga, boshqa xillari esa akvayerel bo'yoqlarga, boshqa xillari esa akvarel bo'yoqlarga muljallangan ( yelimlash uchun mo'ljallangan mo'yqalamlar uchun mustasno). Ularni ko'rinishiga qarab quyidagicha farqlash mumkin. Yalpoq (moyli bo'yoqlar uchun muljallangan mo'yqalamlar kurakcha va dumaloq shaklda bo'ladi). Akvarel uchun ishlatiladigan mo'yqalamlar yumaloq bo'lib uch tomoniga qarab ingichkalashib boradi va bu juda mayda detallarni ishlash uchun qulaylik tug'diradi. Rasm ishlaganda qog'ozni yuzi buzilmaslik uchun bu mo'yqalamlar maxsus yumshok yunglardan yasaladi. Akvarel mo'yqalamning kolonok, olmaxon, savsar yungidan yasalgan turlari mavjud.

Mo'yqalamning ishga yaroqli yoki yaroqsizligini bilish uchun uni toza suvga tiqib olib silkitish kerak. Agar shunga mo'yqalamning uchlari to'planib qolsa-yaroqli, to'zib tursa-yaroqsiz bo'ladi. Mo'yqalamningt bandida nomeri bo'ladi. Bu nomer mo'yqalam mo'y qismining kengligini bildiradi. Nomerdagi sonlar ortib borishi bilan yung qismining kengligi ham ortib boradi. Shuning uchun akvarel bilan ish ishlashda mo'yqalamning kerakli nomeri yuzaning katta yoki kichikligiga qarab tanlanadi. Tasviriy san'at darslarida ingichka mo'yqalamlardan kam foydalaniladi, chunki ular bilan katta rasmlarni bo'yab bo'lmaydi. Bu xildagi mo'yqalamlar ko'proq mayda detallarni hamda dekorativ bezash ishlaridagi naqshlarni bo'yashda ishlatiladi. Yuqorida nomeri ko'rsatilag yo'g'on xajmdagi mo'yqalam bilan katta rasmlarni bo'yash mumkin,

uning ingichka uchi esa suratning mayda detallarini ishlash imkonini beradi. Umuman olganda butun ishni bitta mo'yqalamda bujara olish imkoni tug'iladi. Shunda ko'z hamda qo'l xarakati uyg'unlashadi. Tajribali rassomlar ko'pincha ikki tomonida ham mo'yi bo'lgan mo'yqalamlardan foydalanadilar. Ularga maxsus buyurtma berish tayyorlatish mumkin.

Bulardan tashqari, xar-xil o'lchamdagi kurakchasimon, yalpaq mo'yqalamlar ham ishlatiladi. Endi mo'yqalamlarni ishlatishning bir qator usullari haqida gapirib o'tamiz. To'g'rirog'i, bu usullar, tavsiya etilayotgan yo'llanma bo'lib, ular umumiy qoida tarzda qo'llanilmaydi. Chunki ba'zi mo'yqalamni boshqacharoq vaziyatda ishlatishga to'g'ri kelib qoladi. Bordiyu, mo'yqalam bilan keng yuzalarni bekitishga to'g'ri kelsa,

uni burchak ostidan ushlash hamda ishni qog'ozning tepa qismidan uzib-uzib bo'yoq berishdan boshlash zarur. Bunda mo'yqalam qog'ozning chap tomonidan pastka va ayni vaqtida o'ng tomonga qaratib tez-tez xarakatlantiriladi. Agar yupqa va tirnoq bo'yash kerak bo'lsa, mo'yqalam tik ushlanadi, hamda ohistagina qog'oz bo'ylab yurgiziladi. Kuchli mazok hosil qilish (uzib-uzib bo'yoq berish)uchun mo'yqalam kerakli joyga qattiqroq bosiladi va darhol ko'tarib olinadi. Oqib ketayotgan bo'yoq esa toza mo'yqalamga shimdirib olinadi. Xomaki rasm ishlashda kerakli bo'yoqni o'z ichida birndaniga qo'yish aloxida maxorat talab qilinadi. Lekin mo'yqalam qog'ozga oxirigacha bosib yuborilsa, hamma bo'yoq birdaniga oqib tushib ketishi mumkin.

Qo'yilgan mazoklarni xarakterli bo'lishi muxim axamiyat kasb etadi. Mo'yqalamlarni ishlatayotganda ayniqsa uning mo'y qismi tez ishdan chiqishini unutmaslik kerak. Bo'yoq olinayotganda mo'yqalamni xaddan tashqari ko'p ishqalash tavsiya etilmaydi, sababi mo'y qismi tez to'kilib keatdi. Bunda mo'yqalam bo'yoq ustida oldinga va orqaga hamda chapga va o'nga tomon tez-tez, yengil-yengil yurgiziladi. Bir marta bo'yoq olinganidan so'ng, ikkinchi olishga mo'yqalam dastavval tozalab yuviladi va latta bilan siqib

tashlanadi. Toza suvga botirib olinganidan keyingina navbatdagi bo'yoq olinadi.

Dastlab sakkiz nomerlaridan to o'n, o'n ikkinchi nomergacha bo'lgan mo'yqalamlarni ishlatish mumkin. Keyinchalik esa, o'n ikki, o'n turt nomergacha, balki undan kattaroq nomerli mo'yqalamlar ham ishlatiladi.

Mo'yqalam ishlatilib bo'lingach, tozalab yuviladi va latta bilan siqilganidan so'ng tirgakka solib qo'yiladi yoki mo'y qismi yuqoriga qilingan holda stakanda saqlanadi. Ba'zan mo'yqalamni yung qismini stolning chetidan bir oz chiqarib qo'yish ham mumkin.

7. Palitra. Tasviriy san'at darslarida oddiy, oq rangdagi yassi laganchadan palitra sifatida foydalanish mumkin. Etyud ishlash paytida metalldan yasalgan va sirlangan yoki plastmassadan yasalgan palitralardan foydalangan ma'qul. Palitraning eng yaxshi tomoni shundaki, unga qo'yilgan bo'yoqlar aniq va ravshan, tiniq bo'lib ko'rinib turadi. Shuningdek uzoq vaqtgacha qurilmasdan saqlanadi. Palitiraning rangi oq bo'lganligi sababli bo'yoqlarni tuslari o'zgarmasdan ko'zga tashlanadi. Palitradan foydalanish usullari va unga bo'yoqlarni joylashtirish tartibi ko'rsatilgan. Bo'yoqlar ko'zga qanchalik yaqin bo'lsa ularni bir-birlarini ajratish ham shunchalik oson va qulay bo'ladi. Politraga ranglarni joylashtirishda muayyan tartibga rioya qilish taldabalarning sifatli ishlashlariga, ko'zlari va qo'llarining avtomtik ravishda xarakat qilishga, ishni tez bajarishlariga yordam beradi va ularni ortiqcha qiynab qo'ymaydi.

Politraga oldin iliq ranglardan sariq bo'yoqlar, keyin zarg'oldoq qizil, rang yoki jigar ranglar va nihoyatda zangori, binafsha ranglar (bular sariq ranglar jumlasidandir) qo'yiladi. Politraga qo'yilgan bo'yoqlarni bir-biri bilan aralashtirishda iflos mo'yqalamlardan qat'iyan man qilinadi. Shu tariqa politradagi bo'yoqlar toza saqlanadi. Ish tamom bo'lgandan so'ng politra yaxshilab tozalab qo'yiladi, ayniqsa politraning suv tekkan joylari yaxshilab artiladi.

8. Stakan suv olish uchun eng yaxshi idish hisoblanadi. Ekskursiyalarda, etyud ishlashda metal yoki shishastakanlar bankalar juda qo'l keladi. Akvarel bilan ishlashda suv olish uchun qo'llaniladigan idishlarning turlari har-xil bo'lishi mumkin.

9. Qalamlar akvarel bo'yog'ida ishlangan rasmlarning yaxshi chiqishida muxim rol o'ynaydigan vositalardan biridir. Tasviriy san'at darslaridaasosan o'rtacha yumshoqlikdagi qalamlardan foydalaniladi.”TM” markali qalam chizish uchun juda qulaydir. Qalamlarning tomonida nomi, so'ngra esa qattiqroq yoki yumshoqlik darajasi yozib qo'yiladi. «T» qattiqlik ma'nosini anglatadi, uning yonidagi son qattiqlik darajasini ko'rsatadi. «2T» belgili qalam «T» belgili qalamdan qattiqroqdir. Tasviriy san'at darslarida qattiq qalamdan nafis joylarni shtrixlashda foydalaniladi. Ular chizmachilik darslarida ham qo'llaniladi. Yumshoq qalamga «M» belgisi qo'yilib, yumshoqlik darajasi sonlar bilan ko'rsatiladi. Rasmning sifati ko'pincha qalam o'zining yechilishiga bog'luq bo'ladi. Rasm chizish uchun ajratilgan vaqtdan unumli foydalanish maqsadida qalam uchini dars yoki mashg'ulot boshlanishidan oldinroq qo'ygan ma'qul. Qalamni ish joyida ochmaslik lozim, chunki grafitning ko'zga ko'rinmaydigan zararlari rasmni iflos qilib yuboradi. Eng yaxshisi qalamni quticha yoki qog'oz parchasi ustida ochishdir. Bunda chiqindilarni maxsus yashikka tashlash oson bo'ladi. Qalamni haddan tashqari bosib chiqish yaramaydi. Chunki uning uchi sinib qolishi mumkin.

O'quvchilarni qalamni ochilgan yeridan uzunroq ushlashga o'rgatish yaxshi natija beradi. Qalam umuman uchta barmoq bilan ushlanadi va unchalik qattiq siqib olinmasdan erkin yuritiladi. Uzunroq qalamlardan foydalangan ma'qul.Chunki kalta qalamlarda naturaning o'zaro nisbatlarini o'lchab chizish qiyinlashadi. Siyoh rangli qalamlarda rasm chizish mumkin emas: chiziqqa suv tegsa, bo'yalib ketadi. Qalam bilan chizishda aniqlik, puxtalik va malakali bo'lish talab etiladi.

10. O'chirg'ich. O'chirg'ichlar ikki xil: qalamda chizilgan chiziqlarni o'chirishga mo'ljallangan hamda idoralar uchun chiqarilgan bo'ladi.

Noto'g'ri chizilgan tasvirni o'chirishdan oldin to'g'rilab chizib olish lozim. Shunday qilingan xato yaqqol ko'rinib turadi. O'chirg'ich bilan o'chirishdan qo'l faqat chizish bo'ylab bir tomonlama harakatlantiriladi. Shuningdek, o'chirg'ichni hadeb ishlativerish ham yaramaydi. Unda qog'oz yuzasiga bo'yoq yaxshi yotmaydigan bo'lib qoladi. O'chirg'ichni qo'lda uzoq ushlab turish mumkin emas. Chunki o'chirg'ich qo'lda ter bosib, qog'ozni kir qilib qo'yish mumkin.

Tasviriy san'at darslarida rangli tasvirlarning muvaffaqiyatli chiqishida akvarel bilan ishlashda orttirilgan tajribalar muhim rol o'ynaydi. Chunki bo'yoq bilan ishlash qanchalik puxta o'rganilgan bo'lsa rangli tasvirlar shunchalik yaxshi chiqadi.

Akvarel bilan ishlashda talabga javob beradigan qilib jixozlanish kerak. Shuningdek, planshet hamda molbertdan to'g'ri foydalanishni o'rganish, qog'oz yuzalarini har xil shikastlanishlarlardan ehtiyot qilish lozim. Akvareldan foydalanishda uning sifatiga e'tibor berish darkor. Bo'yoqlarni maxsus idishlarda suv bilan aralashtirish va qog'oz bo'lagida sinab ko'rish tavsiya etiladi. Topilgan rang tusi kerakli darajaga yetgandagina undan foydalanish lozim.Akvarel bilan ishlash texnikasini puxta o'zlashtirish uchun dastlabki mashqlarni qora, to'q jigarranglarda bajargan ma'qul. Bu usulda ishlash monoxrom yoki grizayl metodida ishlash deb ataladi.

Akvarel bilan ishlashda quyidagi izchillikka rioya qilinsagina bo'yoqda ishlangan tasvirlar talabga javob bera olishi mumkin:

1. Kerakli bo'yoq maxsus idishda suv bilan aralashtirilib tayyorlanadi hamda qog'oz bo'lagiga surtib, sinab ko'riladi.
2. Qog'oz sirtiga bo'yoq berayotganda mo'yqalam hamisha eritmagan rosmana botirib olingan bo'lishi kerak.
3. Ostki qavatdagi buyoq qurimaguncha, navbatdagi bo'yoq qavati yotqizilmaydi. Keyingi qavat tez qo'yilishi lozim, aks holda ostki qavat yuvilib ketishi mumkin.

4. Akvarel bo'yoqlari bilan ishlashda oq bo'yoqdan foydalanilmaydi, chunki oq bo'yoq rolini oq qog'ozning o'zi bajaradi.

5. Qo'yilgan bo'yoq qavati ostidan qog'ozning sirti sezilib turishi lozim.

Agar taxtacha ko'rinishidagi akvarel ishlatilsa, bo'yoq tez-tez ho'llab turiladi, hamda toza mo'yqalam bilan olinadi.

Akvarel bilan ishlashni o'rganishda amaliy mashg'ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, bir rangning ustiga ikkinchisini qo'yib yangi tus hosil qilish mashqni olaylik. Bunda qo'yilgan xar ikkala rang ostidan ham qog'ozning sirti sezilib turmog'i darkor. Shuningdek, sovuq tusli rang ustidan iliq tusli rangni qoplash orqali yangi rang tusini hosil qilish yo'llarini puxta o'rganish kerak.

Bundan tashqari iliq rang ustidan sovuq tusli rangni qoplash yo'li bilan ham qo'shimcha rang tusini topish mumkin. Ayrim hollarda qo'yilgan ranglarning yorug'lik darajalari bir-birlariga tenglashtirish uchun ularning ustidan biror rangning suyuq, kuchsiz eritmasi bilan qoplab tavsiya etiladi.Shuni esda tutish lozimki, muayyan rang ikkinchi bir rang bilan qoplanganda yorug'likning qaytarish xususiyatidan mahrum bo'ladi. Lekin oldin qo'yilgan bo'yoq qavatining ravshanlik darajasi hamda to'yinganligi muhim axamiyatga ega. Ustki qo'yiladigan qavati esa doimo oxangdor, juda tiniq bo'lishi va ostidagi rang tusini bo'g'masligi shart.

Rang tuslarini haddan tashqari to'q tusda olish yaramaydi. Aks holda rangli tasvirlarda keskin ko'zga tashlanadigan rang dog'chalari hosil bo'lishi mumkin.

Akvarel bilan ishlatishda bir rangning o'zidan har hil rang tuslarini xosil qilishni yaxshilab mashq qilish kerak.

O'quvchilarga yorug' , oq tusdagi rangni hosil qilish uchun suvni, tuq tusdagi rangni hosil qilish uchun esa bo'yoqni ko'proq qo'shish kerakligini o'rgatish kerak. Och tusdagi rangning hosil bo'lishini amalda ko'rsatish uchun suvli stakanga qizil rang aralashtiriladi. Stakanda hosil bo'lgan aralashmaga suv qo'shishni davom ettirsak, bu rang tusining ochlanib borishining guvohi bo'lamiz. Aksincha, aralashmaga qizil rang qo'shishni davom ettirsak, mazkur

rang tusining to'qlashib borishini ko'ramiz. Bu xildagi mashqlarni faqat ranglar yordamida bir necha marta bajarib ko'rish mumkin.

Ranglar to'yinganligini asta-sekin o'zgarib borishi haqida alohida to'xtalib o'tish kerak. Agar xromatik ranglar tarkibiga axromatik ranglar qo'shilsa, ularning tiniqligi pasayadi. Natijada rangning to'yinganligi o'zgarib,boshqa rang tusi hosil bo'ladi. Kul rang qanchalik ko'p qo'shilsa, xromatik rang shunchalik axromatik bo'lgan kul rangga yaqinlashib boradi. Bu xildagi yorug'lik kuchlarini kamaytirish natijasida ranglarning tiniqligini yo'qotish hamda xira ko'rinishdagi ranglar olish mumkin. Rang tuslarini bir-birlaridan farq qilishnio'rgatishda bir rangning har-xil tuslari orqali naqsh kompozisiyasini ishlash kerak.

Akvarel bilan ishlash malakalarini oshirishda asosiy va qo'shimcha ranglar ustida ishlash muhim ahamiyat kasb etadi. Rang ustida ishlash usullari ikki qismga: asosiy ranglar va qo'shimcha ranglarga bo'lib o'rganiladi. Olingan rang tuslari esa o'zaro solishtirish yo'li bilan aniqlanadi.

Qo'shib topiladigan ranglar aralashtirish yo'li bilan hosil qilinadi. Buning uchun dastlabki mashqlarni nabordagi tayyor bo'yoqlarni qo'shib topishdan boshlash lozim. Bunga quyidagi jadvalda ba'zi bir misollar keltiramiz. Asosiy hamda qo'shib topiladigan ranglar ustida mashq qilinayotgan paytda naturaga yaqin bo'lgan rang tuslarini topish kerak. Bundan tashqari, pardozlangan siliq sirtlarga,oynaga, metall shartlari atrofdagi buyumlarning tasvirlari tushadi va ularning ranglari ham boshqacharoq ko'rinishda bo'ladi.

Ranglarning bu xususiyatlari refleks taassurotini paydo qiladi hamda ishlanayotgan naturaning eng muhim qismini tashkil etadi. Akvarel va mo'yqalamlar bilan ishlashni o'rganishda dastlabki mashqlar muhim rol o'ynaydi.

# X U L O S A

Har qanday san'at turi insonga o'z ta'sirini o'tqazib unda dunyo qarashini shakllantiradi.

Tasviriy san'at insonda xayotdagi ko'rsatgan jasoratini, fikr va ichki xissiyotlarini aks ettiradi.

O'zbek tasviriy san'atini dastlabki rivojlanishi bosqichida rassomlar xaqiqatni yarim manzara shaklida tasvirlashdi. Ularni sharqona hayot, yodgorlik, obidalar fonida, gala – bozor hayoti, choyxonada hordiq chiqarayotgan rang – barang liboslardagi odamlar qiziqtirdi.

Xalqning yangi turmush – tarzi, qishloq hayoti, paxta dalalaridagi mehnat jarayoni, o'zbek rassomlarining asosiy mavzusi bo'lib qoldi, O'zbekiston tasviriy

san'ati hozirgi bosqichda "Professionalizm" – mahorat jihatidan o'zining yuqori mavqeyiga ega bo'ldi.

Hozirgi zamon san'ati rivojlanishiga, rassomning ijodiy izlanishni yangi mazmunli g'oya, insonlarining ma'naviy – ma'rifiy talablarini qondirish bilan bog'liqdir. Shuning uchun kartina kompozitsiyasi yechimi, murakkab ruhiy holatini topish, rassomdan kundalik hayotidagini aks ettirish muammolarini, zamondoshlarning ichki his – tuyg'ularini sezishni, to'gri chuqur tasavvur etishni talab qiladi.

Rassomlar zimmasiga o'z asarlariga badiiy obrazlarni yaratish vositalarini boyitish, taraqqiy etgan jahon ilg'or rassomlari bilan dunyo qarashlari ko'lamini kengaytirish kabi ma'suliyatlar qo'yilgan.

Mustaqillik tufayli boshlangan buyuk tarixiy taraqqyot elidan va olg'a rivojlanib borayotgan O'zbekiston Respublikasi oldida endilikda bir qancha muhim vazifa va muammolar turibdi.

Ilm – fan, madaniyat va ma'rifat har qanday mamlakatni yuksaklikka ko'taradi, uni taraqqiyotini ta'minlaydi.

Darhaqiqat, bugun xalqaro hayot, kishilik taraqqiyoti shunday bosqichda kirganki unda xarbiy qudrat emas, balki intellektual salohiyat aql – idroq fikr ilg'or texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Endilikda har qaysi davlat, har qaysi millat, birinchi navbatda, o'zining yuksak madaniyat va ma'naviyatli bilan kuchidir.

Mamlakatimiz kelajagi so'zsiz kadrlar tayyorlashga bevosita bog'liq. Yangicha fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash, tashkilotchi va zukko kadrlarga ega bo'lish uchun, ta'lim – tarbiya tuzumini tubdan o'zgartirish, uni davr talaba darajasiga ko'tarish, jamiyatimizning, har birimizning oldimizdagi eng muhim vazifalaridan biri bo'lmog'i kerak.












KUN.UZ












